PROGRESS IN INTERNATIONAL READING LITERACY STUDY

# PIRLS

IEA PIRLS 2021

# PIRLS 2021 tadqiqoti qamrov doirasi

Ina V.S. Mullis va Michael O. Martin, muharrirlar

TSBM
TA'LIM SIFATINI BAHOLASH BO'YICHA XALQARO TADQIQOTLARNI AMALGA OSHIRISH MILLIY MARKAZI

IEA
TIMSS & PIRLS International Study Center
Lynch School of Education
BOSTON COLLEGE

PROGRESS IN INTERNATIONAL READING LITERACY STUDY

# PIRLS

IEA PIRLS 2021

# PIRLS 2021 Baholash qamrov doirasi

**Ina V.S. Mullis va Michael O. Martin, muharrirlar**

TSBM
TA'LIM SIFATINI BAHOLASH BO'YICHA XALQARO TADQIQOTLARNI AMALGA OSHIRISH MILLIY MARKAZI

IEA TIMSS & PIRLS International Study Center Lynch School of Education BOSTON COLLEGE

"Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi"

TOSHKENT — 2021

Mualliflik huquqi © 2019, Ta’lim sohasidagi yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA)
PIRLS 2021 baholash qamrov doirasi
Ina V.S. Mullis va Michael O. Martin, muharrirlar

Noshirlar: TIMSS & PIRLS xalqaro tadqiqotlar markazi,
Lynch ta’lim maktabi, Boston kolleji,
Ta’lim sohosidagi yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA)

Copyright © 2019 International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA)
PIRLS 2021 Assessment Frameworks
Ina V.S. Mullis and Michael O. Martin, Editors

Publishers: TIMSS & PIRLS International Study Center,
Lynch School of Education, Boston College and
International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA)

Ushbu qo‘llanma Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) bilan kelishilgan holda Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazida ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima va tahrir qilingan bo‘lib, IEA tashkilotining rasmiy tarjima nashri hisoblanmaydi. Uning sifati va asl matndagi ifodalar bilan mos kelishi istisno tariqasida tarjimon va muharrirlarning zimmasida qoladi. Asl matn bilan tarjima o‘rtasida har qanday nomuvofiqliklar yuzaga kelganda faqatgina asl manbadagi matn haqiqiy deb hisoblanadi.

**Tarjimon:**

Elmurod Tursunov
Lingvistika (ingliz tili) magistri

**Muharrirlar:**

Abduvali Ismailov, Qodir Karimberdiev, Zahro Islomova
Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi

## KIRISH

**PIRLS 2021- Xalqaro o‘qish savodxonligidagi o‘zgarishlarning 20 yillik monitoringi....4**

Ina V.S. Mullis

PIRLS 2021 xalqaro tadqiqoti tarixi....5
PIRLS 2021- kelgusida raqamli PIRLS xalqaro tadqiqotiga o‘tish....7
PIRLS 2021 baholash qamrov doirasining yangilanishi....7

## 1-BOB

**PIRLS 2021 O‘qish savodxonligini baholash qamrov doirasi....8**

Ina V.S. Mullis va Maykl O. Martin

Umumiy ma’lumot....8
O‘qish savodxonligi ta’rifi....9
PIRLS o‘qish savodxonligini baholash qamrov doirasi....10
PIRLS baholash qamrov doirasining PIRLS va ePIRLS dasturida tutgan o‘rni....11
O‘qishdan ko‘zlangan maqsadlar....12
Tushunish jarayonlari....16
ePIRLS dasturining boshqarilishi....21
PIRLS matnlari va ePIRLS onlayn matnlarini tanlab olish....22
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati....24

## 2-BOB

**PIRLS 2021 tadqiqotida so‘rovnomalarning qamrov doirasi....30**

Ina V.S. Mullis, Maykl O. Martin va Jenny Liu

Umumiy ma’lumot....30
Uy muhiti....33
Maktab muhiti....35
Sinfxona muhiti....41
O‘quvchiga xos xususiyatlar....47
Milliy muhit....49
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati....52

## 3-BOB

**PIRLS 2021 xalqaro tadqiqotida baholash mezonlari** ..... 62

Michael O. Martin, Matthias von Davier, Pierre Foy va Ina V. S. Mullis

Umumiy ma'lumot ..... 62

Baholanadigan o'quvchi kontingenti ..... 63

O'qib o'zlashtirish darajalarining e'lon qilishi ..... 64

PIRLS 2021 xalqaro tadqiqotining moslashuvchan tuzilishi ..... 65

Mamlakatlarda baholash daftartlarining taqsimlanishi ..... 70

ePIRLS tadqiqoti raqamli PIRLS tadqiqotiga muvofiqlashtirish ..... 71

Raqamli PIRLS tadqiqoti topshiriqlaridan takroriy foydalanish sxemasi ..... 72

## A ilova

Keng miqyosda o'tkaziladigan xalqaro baholash tadqiqotida moslashuvchan tuzilishning mantiqiy asosi ..... 75

Mavjud yondashuvlar ..... 76

PIRLS 2021 tadqiqotida moslashuvchan tuzilishdagi baholash tartiblari ..... 78

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ..... 80

Minnatdorchilik ..... 81

# KIRISH

## PIRLS 2021—Xalqaro o‘qish savodxonligi sohasidagi yutuqlarning 20 yillik monitoringi

Ina V.S. Mullis

O‘qish savodxonligini tadqiq etishda ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasining (IEA) PIRLS tadqiqoti (Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish darajasini baholash xalqaro tadqiqoti) mazkur assotsiatsiyaning 1991-yildagi o‘qish savodxonligini tadqiq etish dasturiga qo‘shimcha holda 2001-yildan joriy etila boshlandi. Har besh yilda o‘tkaziladigan ushbu xalqaro tadqiqot bolaning mustaqil inson sifatida rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib, boshlang‘ich ta’limda tahsil olayotgan o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmalarini xalqaro miqyosda baholaydi. Odatda, ushbu rivojlanish davrida o‘quvchilar o‘qish ko‘nikmasini hosil qilgan bo‘lib, endi bu ko‘nikmadan boshqa fanlarni o‘rganishda foydalanayotgan bo‘ladi. PIRLS xalqaro tadqiqoti o‘qish savodxonligini tadqiq etishda Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasining (IEA) o‘quvchilarning matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash tadqiqotiga (Trends in International Mathematics and Science Study–TIMSS) qo‘shimcha tarzda ishlab chiqilgan. PIRLS xalqaro tadqiqoti o‘qish savodxonligini tadqiq etishda Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasining (IEA) Boston kollejida olib boriladigan TIMSS va PIRLS xalqaro tadqiqot markazi tomonidan IEA xalqaro assotsiatsiyasinig Amsterdam va Gamburg shaharlaridagi idoralari bilan yaqindan hamkorlikda boshqariladi.

O‘qish savodxonligining rivojlanishi har bir o‘quvchining o‘sib-ulg‘ayishi, ta’lim olishi va kundalik hayotida muhim ahamiyat kasb etgani bois, o‘qish savodxonligini tadqiq etishda Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasining (IEA) qariyb 60 yil mobaynida o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmalarini muntazam ravishda xalqaro miqyosda baholab, ularning o‘qib o‘rganishlari uchun zarur sharoitlarni yaratishga harakat qilmoqda. Ushbu assotsiatsiya (IEA) turli ta’lim tizimiga ega ishtirokchi mamlakatlarda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni yanada teran tushunish maqsadida 1960-yillarda ta’lim sohasida qo‘lga kiritilgan yutuqlarni xalqaro miqyosda qiyosiy tahlil qiluvchi hukumat agentliklari va milliy tadqiqot institutlaridan tashkil topgan mustaqil xalqaro tashkilot hisoblanadi. Har bir PIRLS baholash tadqiqoti ota-onalar yoki vasiylar, maktablar, o‘qituvchilar, mamlakatlar va o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan qator so‘rovnomalar hamda o‘quvchilarning o‘qib o‘zlashtirish ko‘nikmalarini baholashdagi o‘zgarishlarni zamonaviy tarzda tahlil qiladigan ayni shu an’anani davom ettiradi. O‘quvchilarning o‘qishni o‘rganish va ta’lim olishdagi imkoniyatlari haqidagi so‘rovnoma ma’lumotlari erishilgan natijalarni talqin qilish uchun muhim ma’lumotlarni taqdim etadi.

PIRLS 2021 baholash qamrov doirasining dastlabki ikkita bo‘limi PIRLS 2021 o‘qish savodxonligi qamrov doirasi va PIRLS 2021 so‘rovnomalar qamrov doirasidan tashkil topgan. O‘qish savodxonligi qamrov doirasi o‘quvchilarning o‘qib tushunishlaridan ko‘zlangan ikki asosiy maqsad, badiiy tajriba orttirish va axborotni olish va undan foydalanish, hamda to‘rtta tushunish jarayonidan (topish, xulosalar chiqarish, uyg‘unlashtirish va baholash) kelib chiqib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish darajasini baholash uchun xizmat qiladi. So‘rovnomalar qamrov doirasida PIRLS 2021 so‘rovnomalaridagi mavzular yoritiladi. Uchinchi bo‘limda PIRLS 2021 xalqaro tadqiqotining baholash mezonlari haqida ma’lumot beriladi. O‘tgan 20 yil mobaynida o‘quvchilarning o‘qib tushunish darajalarini baholovchi PIRLS tadqiqoti o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmalarini o‘zlashtirishga imkon beruvchi muhitlarga oid PIRLS so‘rovnoma ma’lumotlari bilan umumlashtirilishi tadqiqotchilarga dunyo bo‘ylab o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini takomillashtirish borasida qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘lish imkonini berdi.

## PIRLS 2021 xalqaro tadqiqoti tarixi

PIRLS 2021 xalqaro tadqiqoti mazkur dastur doirasidagi 2001, 2006, 2011 va 2016-yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlarning davomi hisoblangan beshinchi davriylik sanaladi. Har bir o‘tkaziladigan PIRLS tadqiqotida ishtirok etuvchi mamlakatlar soni ortib bormoqda. PIRLS 2021 xalqaro tadqiqotida taxminan 70 ga yaqin mamlakatlar, benchmark ishtirokchi sifatida qatnashadigan hamda 2001-yildan buyon avvalgi sikllarda ishtirok etgan ko‘pgina boshqa mamlakatlar qatnashishi kutilmoqda. PIRLS 2021 xalqaro tadqiqoti 2001-yildan buyon qatnashib, natija ko‘rsatib kelayotgan mamlakatlar bilan beshinchi bor 20 yil mobaynida ushbu yo‘nalishda to‘plangan yutuqlarini baham ko‘radi.

2001-yilda IEA xalqaro assotsiatsiyasining o‘qish savodxonligini baholash tadqiqotida qatnashgan mamlakatlar yangicha baholash tadqiqotini yaratish borasida IEA xalqaro assotsiatsiyasi va Boston kolleji bilan hamkorlik qilish istagini bildirdi. Bu esa PIRLS xalqaro tadqiqotiga o‘quvchilarning matnni o‘qib tushunish darajasini takomillashtirishlarida ularning ta’lim olish jarayonlari haqida ma’lumotlar to‘plash imkonini berdi. 2001-yildan buyon PIRLS xalqaro tadqiqoti so‘rovnomalarining asosiy tarkibi sifatida o‘quvchilarning ota-onalari yoki vasiylari tomonidan to‘ldiriladigan o‘qishni o‘rganish so‘rovnomalari kiritildi. Shuningdek, har bir baholash davriyligi tarkibida PIRLS ensiklopediyasi ham mavjud bo‘lib, u ishtirokchi mamlakatlar, jumladan har bir ishtirokchi mamlakat tomonidan ularning o‘qish fani bo‘yicha tuzilgan o‘quv dasturlari va tadqiqot doirasidagi yo‘riqnomalarini yoritib beruvchi bo‘limga oid qiyosiy-tizimli ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

PIRLS xalqaro tadqiqoti 2001-yildan boshlab ishtirokchi mamlakatlar va IEA xalqaro assotsiatsiyasining TIMSS hamda PIRLS xalqaro tadqiqot markazlari bilan hamkorlik qilib kelmoqda. PIRLS xalqaro tadqiqotida ishtirok etayotgan barcha mamlakatlar, tashkilotlar va agentliklar mazkur dasturni takomillashtirishga o‘z hissalarini qo‘shib, o‘quvchilarning o‘qib tushunish darajasini baholashda qo‘llaniladigan eng sodda va innovatsion mezonlarni ishlab chiqmoqda. 2006-yilda PIRLS xalqaro tadqiqoti badiiy va axborot olish ko‘nikmasiga qo‘shimcha ravishda o‘quvchilarning o‘qib tushunish jarayonlari asosida olingan natijalarni tahlil qilish maqsadida dastur doirasida berib boriladigan matnlar sonini 8 tadan 10 taga ko‘paytirdi.

2011-yilda TIMSS va PIRLS baholash sikllari hamkorlikda ishlab, ishtirokchi mamlakatlarga boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish, matematika va tabiiy fanlarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari haqida ma’lumotlar olish imkonini yaratdi. Shuningdek, so‘rovnomalarni yangilash va ularni PIRLS va TIMSS dasturlariga muvofiqlashtirish bo‘yicha ham qator ishlar olib borildi. Bundan tashqari, 2011-yilda IEA xalqaro assotsiatsiyasi ishtirokchi mamlakatlarga boshlang‘ich sinflarda ta’lim olayotgan o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi bo‘yicha olgan fundamental bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida PIRLS baholash qamrov doirasini kengaytirdi.

PIRLS 2016 xalqaro tadqiqotining ikkinchi baholash doirasidagi PIRLS o‘qish savodxonligi bo‘yicha yana 20 ta matn kiritildi. Ushbu matnlar o‘zining murakkablilik darajasiga ko‘ra PIRLS baholash qamrov doirasida talab etilganidan osonroqdir. Shuningdek, 2016-yilda muqobil tanlov sifatida ePIRLS tadqiqoti ham joriy etildi. ePIRLS tadqiqotida hozirda tobora ahamiyati oshib borayotgan onlayn o‘qish savodxonligiga e’tibor qaratiladi. Ma’lumki, internet o‘quvchilarning ma’lumotlarni olishlari hamda maktab fanlari bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazishda asosiy vosita sanaladi. ePIRLS tadqiqoti boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tabiiy va ijtimoiy sohalarga tegishli mavzularni o‘z ichiga olgan, maktabda o‘qitiladigan fanlar bo‘yicha beriladigan mashg‘ulotlarga yaqinlashtirilgan qiziqarli innovatsion imkoniyatlarni o‘z ichiga oladi.

## PIRLS 2021 - kelgusida raqamli PIRLS xalqaro tadqiqotiga o‘tish

Har bir o‘tkaziladigan PIRLS tadqiqoti sikli bilan yuzaga keladigan o‘zgarishlarga hamohang tarzda PIRLS 2021 xalqaro tadqiqotini o‘tkazishda yozma shakldagi baholash daftarlari o‘rniga raqamli vositalardan foydalanish imkoniyati yaratiladi. Taxminan 50 foiz ishtirokchi mamlakatlarda PIRLS xalqaro tadqiqoti kompyuterlar yordamida o‘quvchilarga uzluksiz tarzda matnlarni o‘qish va savollarga javob berish imkonini beruvchi sodda va zamonaviy interfeyslardan foydalaniladi. Rang-barang matnlar o‘quvchilarga qiziqarli bo‘lishi uchun mo‘ljallangan bo‘lib, shu bilan birga natijalarni hisoblashni yengillashtirish maqsadida yangi topshiriqlardan foydalaniladi.

Raqamli PIRLS 2021 xalqaro tadqiqoti PIRLS tadqiqotining boshqarilish jarayonini soddalashtirilishiga imkon beruvchi onlayn baholash tizimi orqali boshqariladi va o‘quvchilarga topshiriqlar onlayn tarzda taqdim etiladi (nashr qilingan topshiriqlar va baholash daftarlari ko‘rinishida berilmaydi). Bu esa ePIRLS tadqiqotining raqamli PIRLS tadqiqoti bilan integrallashuviga imkon berib, ePIRLS tadqiqoti qo‘shimcha tekshirishlarni oldini oladi.

Bundan tashqari, raqamli PIRLS 2021 tadqiqotida baholash mezonlariga muvofiqlashtirilishi mumkin bo‘lgan ayrim imkoniyatlarni ham o‘z ichiga oladi. Kompyuter yordamida o‘tkaziladigan raqamli PIRLS 2021 tadqiqotida PIRLS tadqiqoti va PIRLS o‘qish savodxonligi bo‘yicha berilgan, murakkablik darajasi uncha yuqori bo‘lmagan matnlar umumlashtirilib, PIRLS 2021 baholash tadqiqotining murakkablik darajasi ishtirokchi mamlakatlarda tahsil olayotgan o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasiga muvofiqlashtiriladi. 2016-yilgi PIRLS xalqaro tadqiqoti va PIRLS o‘qish savodxonligi tadqiqoti bo‘yicha tuzilgan matnlarning murakkablik darajasini inobatga olib hamda o‘qish savodxonligi bo‘yicha yangidan tuzib chiqilayotgan matnlarning murakkablik darajasini saqlab qolgan holda yagona PIRLS 2021 xalqaro tadqiqoti barcha ishtirokchi mamlakatlarda yuqori, o‘rtacha va past o‘qish salohiyatiga ega o‘quvchilar bilimini baholash imkonini yaratadi.

## PIRLS 2021 tadqiqoti qamrov doirasining yangilanishi

Har bir baholash sikli o‘tkazilishi bilan PIRLS tadqiqotlari qamrov doirasining yangilab borilishi ishtirokchi mamlakatlarga o‘zlarining yangidan-yangi g‘oyalari hamda ularning o‘quv dasturlari, standartlari, qamrov doiralari va yo‘riqnomalari haqida so‘nggi ma’lumotlarni o‘rtoqlashish imkonini beradi. Bu esa qamrov doiralarini ta’limiy jihatdan mos bo‘lishiga sharoit yaratib, har bir o‘tkaziladigan baholash jarayonlarining bir-biriga bog‘liqligini oshiradi va qamrov doiralari, topshiriqlar hamda tartiblarni yanada takomillashishiga xizmat qiladi.

PIRLS 2021 xalqaro tadqiqotida qamrov doiralari PIRLS 2021 ensiklopediyasida ko‘rsatib o‘tilgan ko‘rsatmalar, o‘quv tadqiqoti va ishirokchi mamlakatlardan tanlab olingan milliy tadqiqot koordinatorlari (NRC) tomonidan berilgan taqrizlar yordamida to‘plangan ma’lumotlardan foydalanib yangilanadi. PIRLS 2021 ekspertlar qo‘mitasi, o‘qish savodxonligini rivojlantirish guruhi (Reading Development Group, RDG) va so‘rovnomalarni tuzuvchi guruh (Questionaire Development Group, QDG) ham o‘zlarining muhim g‘oya va yo‘nalishlari bilan yaqindan yordam berdi. Qamrov doiralari chop etilishidan avval milliy tadqiqot koordinatorlari va ekspertlar guruhi tomonidan qayta ishlab chiqildi va ko‘zdan kechirildi. IEA xalqaro assotsiatsiyasining TIMSS va PIRLS xaqaro tadqiqot markazi mazkur jarayonga yaqindan yordam bergan barcha ishtirokchilarga o‘z minnatdorchiligini bildiradi.

# 1-BOB

# PIRLS 2021 O‘qish savodxonligini baholash qamrov doirasi

Ina V.S. Mullis va Mixael O. Martin

## Umumiy ma’lumot

2021-yilda IEA xalqaro assotsiatsiyasining PIRLS (Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish darajasini baholash xalqaro tadqiqoti) tadqiqoti beshinchi bor o‘qish savodxonligi bo‘yicha baholash tadqiqotini o‘tkazadi va ishtirokchi mamlakatlarda o‘quvchilarning qiyosiy o‘qib tushunish ko‘nikmalarini o‘zlashtirishdagi o‘zgarishlarga oid 20 yillik ma’lumotlarni taqdim etadi. O‘qish savodxonligi o‘quvchilarning ilmiy muvaffaqiyatga va shaxsiy kamolotga erishishlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi va PIRLS xalqaro tadqiqoti esa yangi yoki qayta ishlab chiqilgan islohotlar o‘quvchilarning o‘zlashtirishlariga qay darajada ta’sir ko‘rsatishlarini tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. *PIRLS 2021 o‘qish savodxonligini baholash qamrov doirasi* va mazkur qamrov doirasini baholash uchun ishlab chiqilgan topshiriqlar IEA xalqaro assotsiatsiyasining qanchalik uzoqni ko‘zlab ish tutishidan dalolat beradi.

2021-yilda PIRLS xalqaro tadqiqoti barcha test o‘tkazish jarayonini raqamlashtirishga e’tibor qaratmoqda. PIRLS o‘qish savodxonligiga oid matn va topshiriqlarning kompyuter yordamida taqdim etilishi o‘quvchilarni rag‘batlantiradigan hamda ularning ish samaradorligini oshirishga yordam beradigan qiziqarli va ko‘rgazmali tajriba vazifasini o‘taydi. Shuningdek, PIRLS 2021 xalqaro tadqiqoti ePIRLS 2021 tadqiqoti va 2016-yilda joriy etilgan dasturlashtirilgan onlayn muhitida o‘qish savodxonligini kompyuter vositasida baholagani kabi raqamli tartibda ham o‘tkazilishi mumkin.

PIRLS xalqaro tadqiqoti o‘quvchilarning matnni o‘qib tushunishlari, yangidan-yangi g‘oyalar, boshqa madaniyatlar va turli mamlakatlar haqida tasavvurga ega bo‘lishlariga imkon beradigan qobiliyat haqida kengroq tushunchaga ega bo‘lishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Bundan tashqari, u shaxsni hamda jamiyatni o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishish, shuningdek, “biror harakatni bajarish uchun o‘qish”[1], vositasi sifatida yozma matnlar va boshqa turdagi ma’lumotlar ustida mulohaza yuritishni o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, bunday yondashuv bugungi jamiyatda yanada yaqqol sezilib, jamiyat o‘quvchidan o‘qish orqali olgan ma’lumotlardan foydalana olish qobiliyatiga ega bo‘lishni talab etmoqda[2,3,4]. Endilikda o‘quvchilardan ravon o‘qish va asosiy tushunish ko‘nikmasi orqali tushungan yoki idrok etganlarini yangi vaziyatlar yoki loyihalarga nisbatan qo‘llay olish qobiliyatini namoyon etishga o‘tishni talab etilmoqda. *PIRLS 2016 ensiklopediyasi*ga ham qarang.[5,6,7]

O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunish darajasini baholovchi PIRLS qamrov doirasi PIRLS xalqaro tadqiqotining o‘qish savodxonligiga bergan ta’rifi asosida va baholanishi nazarda tutilgan o‘qib tushunish ko‘nikmasi jihatlariga oydinlik kiritish maqsadida IEA xalqaro assotsiatsiyasining o‘qish savodxonligini tadqiq etish tadqiqotidan foydalanib[8,9,10], ilk marotaba 2001-yilda o‘tkazilgan tadqiqot

uchun ishlab chiqilgan.

O‘shandan beri, PIRLS baholash qamrov doirasiga har bir baholash siklida[11,12,13,14] va o‘z navbatida PIRLS 2021-yilda o‘tkazilishi kutilayotgan baholash jarayonlarida ham bir qator yangiliklar kiritilishi nazarda tutilgan.

## O‘qish savodxonligi ta’rifi

PIRLS tadqiqoti tomonidan o‘qish savodxonligiga berilgan ta’rif IEA xalqaro assotsiatsiyasining 2001-yildagi tadqiqotiga asoslangan bo‘lib, unda o‘qish savodxonligi “tushunish va shaxs tomonidan qadrlanadigan va/yoki jamiyat tomonidan talab etiladigan barcha yozma til shakllaridan foydalana olish qobiliyati” deb izohlangan.[15]

Har bir o‘tkaziladigan tadqiqotda o‘qish savodxonligiga nisbatan yuqorida keltirib o‘tilgan ta’rif barcha yoshdagi o‘quvchilar va keng turdagi yozma til shakllariga nisbatan qo‘llanilishi mumkinligini, ammo bugungi texnologik jihatdan rivojlangan dunyoda soni tobora oshib borayotgan qator matnli ma’lumotlarni qabul qilish, maktabda va kundalik hayotda o‘qib tushunish qobiliyatini qanchalik muhim ekanini teran his etadigan yosh o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmasi va tajribalarining o‘ziga xos jihatlarini yoritib berishni ta’minlash maqsadida qayta ishlab chiqilishini taqazo etadi. Endilikda, PIRLS xalqaro tadqiqoti tomonidan o‘qish savodxonligiga nisbatan qo‘llanilgan ta’rifi quyidagicha:

Mazkur qamrov doirasida tadqiqotga oid va ilmiy asos bo‘lib xizmat qilgan turli manbalar havola qilinadi. Ushbu havolalar adabiyotlar bobini va PIRLS baholash qamrov doirasida keltirilgan tadqiqotlar hamda PIRLS tadqiqotida ishtirok etayotgan mamlakatlar tomonidan amalga oshirilgan qator izlanishlarga murojaat qiladi.

*O‘qish savodxonligi tushunish va shaxs tomonidan qadrlanadigan va/yoki jamiyat tomonidan talab etiladigan barcha yozma til shakllaridan foydalana olish qobiliyatidir. O‘quvchi turli shakldagi matnlardan mazmun hosil qiladi. Ular o‘rganish, maktab va kundalik hayotda o‘zlari kabi boshqa o‘quvchilar jamoasiga qo‘shilish va vaqtini samarali o‘tkazish uchun o‘qiydilar.*

O‘qish savodxonligiga nisbatan bildirilgan bunday yondashuv konstruktiv va interfaol jarayon sifatida o‘qish savodxonligiga oid turli nazariyalarni aks ettiradi[16,17,18,19,20,21,22]. Matn mazmuni muayyan o‘qish tarzi asosida o‘quvchi va matn o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik orqali hosil qilinadi [23,24]. O‘quvchi matndan anglashilgan ma’noni tez ilg‘ab oladigan, matn ustida mulohaza yuritadigan, samarali o‘qish strategiyasidan xabardor va o‘qish ustida tafakkur qiladigan shaxs sifatida gavdalanadi.[25,26]

O‘qish jarayonining boshlanishi, o‘rtasi va oxirida o‘quvchi til ko‘nikmalarining, kognitiv va metakognitiv strategiyalar hamda mazmun shakllantirishda birlamchi bilim va ko‘nikmalar majmuasidan foydalanadi[27,28,29,30,31,32]. Bundan tashqari, o‘qish muhitini yuzaga keltiradigan sharoit o‘quvchini o‘qishga rag‘batlantirish va qiziqtirish orqali matn mazmunini shakllantirishga yordamlashadi, ammo sharoit matn mazmunini tushunish imkonini bermaydigan muayyan talablarni yuzaga keltirishi ham mumkin[33,34,35,36].

O‘quvchi o‘zini o‘rab turgan dunyo va o‘zi haqida tasavvurga ega bo‘lishi uchun u turli matnlarni o‘qib o‘rganishi mumkin. Har bir turdagi matn o‘quvchiga matnni talqin qilishiga imkon beruvchi sodda

shakllar va qoidalardan iboratdir.[37]

Har qanday berilgan matn turi ko‘plab shakllar va shakllar jamlanmasi (kombinatsiyasi)ga ega bo‘lishi mumkin. Ular orasida an’anaviy yozma shakllar, masalan, kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, internet va veb sahifalari orqali aloqa qilishning ko‘plab usullarini o‘z ichiga olgan raqamli shakllar mavjud bo‘lib, bunda matn ko‘pincha turli multimedia formatlari bilan birlashtirilgan. [38,39,40,41]

Hozirgi paytda matnlar yoki ma’lumotlarni internet orqali o‘qish maktabdagi dasturning asosiy qismi va ma’lumotlarni qo‘lga kiritishning eng muhim usuli hisoblanadi.[42,43,44] Yangi raqamli savodxonlik ma’lumotlarni internet orqali o‘qish uchun muhim sanalib, unda o‘quvchi o‘ziga kerakli ma’lumotni qidirib topib, uni tushunish orqali o‘qishdan ko‘zlangan maqsadga erishadi. [45,46,47,48,49]

Internet qator veb sahifalar bilan to‘lib toshgan bepoyon tarmoq hisoblanadi. Internetdan ma’lumotlar olish va o‘rganish mazkur murakkab ma’lumotlar ichidan keraklilarini tushunib olishni talab etadi.[50,51,52,53] Vaholanki an’anaviy yozma matnli ma’lumotlar odatda ma’lum miqdorni tashkil qilsa, onlayn o‘qish esa o‘quvchi o‘z yo‘nalishini topishi talab etiladigan chegarasiz qator matnlar tarmog‘i ichidan kerakli ma’lumotlarni topishdan iboratdir. O‘quvchilar avval kerakli veb sahifani topadi va keyin bir veb sahifadan boshqasiga o‘tish uchun o‘zining ma’lumotlar bilan ishlay olish qobiliyatini ishga soladi (masalan, ko‘plab ma’lumotlar va qo‘shimcha qidirish menyulari, tablari va linklari bilan ishlash).

Aslini olganda, internetdan biror ma’lumotni o‘qish uchun foydalanish an’anaviy yozma matnlarni o‘qish uchun kerakli bo‘lgan barcha ko‘nikma va strategiyalarni ishlatishni taqozo etadi, ammo bunda o‘quvchi ko‘proq ma’lumotlardan iborat sharoitda ishlaydi.[54] Internetning murakkabligidan kelib chiqib, onlayn o‘qishda an’anaviy yozma matnlarni o‘qishda talab etiladiganidan farqli ko‘nikmalar va strategiyalari ishga solinadi.[55]

Onlayn tarzdami yoki yozma matnlarni o‘qishni olasizmi o‘quvchilarning nimalarni o‘qiyotganini muhokama qilinishi ularga turli kontekstlarda matn mazmunini shakllantirishga imkon beradi.[56,57] Alohida tartibda yoki guruh bo‘lib o‘qish borasidagi ijtimoiy munosabatlar o‘quvchilarga matnlarni va boshqa ma’lumotlarni tushunish va talqin qilishda yordam beradi.[58,59] Sinfxonasi yoki maktab kutubxonasida yaratilgan ijtimoiy muhit boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘qish jarayoni ularning o‘qituvchilari va sinfdoshlari bilan bilim va tajriba almashishda o‘z dunyoqarashlarini kengaytirish imkoniyatini beradi.[60,61] O‘quvchilar o‘z oila a’zolari va tengqurlari bilan o‘qishdan olgan ma’lumotlar va g‘oyalar haqida suhbatlashar ekan bu muhit chegarasi maktabdan tashqarida ham davom etadi.

## PIRLS o‘qish savodxonligini baholash qamrov doirasi

O‘qishdan ko‘zlangan maqsad va tushunish jarayonidan kelib chiqib, PIRLS 2021 qamrov doirasi to‘rt yildan buyon boshlang‘ich ta’limda tahsil olayotgan o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholashda PIRLS xalqaro baholash tadqiqoti uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

- Tashkil topganiga 20 yil bo‘lgan PIRLS xalqaro tadqiqoti o‘quvchilarning boshlang‘ich maktab darajasidagi o‘qib tushunish ko‘nikmalarini dunyo miqyosida baholovchi “amaliy” standart hisoblanadi. PIRLS 2021 xalqaro tadqiqoti hozirda raqamli formatga o‘tmoqda (ammo an’anaviy

qog‘oz shaklda ham o‘tkaziladi).

- PIRLS 2021 xalqaro tadqiqoti qator murakkabliklarga ega matnlardan iborat bo‘lib, baholash mezonlari natijalarni bir xildagi o‘zlashtirish shkalasida e’lon qiladi.
- ePIRLS kompyuter yordamida beriladigan topshiriqlar o‘quvchilarning ma’lumotlarni qay darajada o‘qish, talqin qilish va tanqidiy tahlil qilishlarini baholash imkonini beradi.

1-jadvalda ko‘rsatib o‘tilganidek, PIRLS qamrov doirasi ham maktabda ham maktabdan tashqarida o‘quvchilarning matnni o‘qib tushunishlaridan ko‘zlangan ikki maqsadga e’tibor qaratadi. Ular badiiy tajriba orttirish va axborotni olish va undan foydalanishdan iborat. Bundan tashqari, PIRLS baholash tadqiqoti yuqorida aytib o‘tilgan ikki maqsad bilan uyg‘unlashgan to‘rtta tushunish jarayonini birlashtiradi. Bu to‘rt jarayonlar diqqatni jamlash va aniq ko‘rsatilgan ma’lumotni topish; to‘g‘ridan-to‘g‘ri xulosalar chiqarish; kontent, til va matn elementlarini tekshirish va baholash; g‘oyalar va ma’lumotni talqin qilish va uyg‘unlashtirishni o‘z ichiga oladi. Shuni ham aytib o‘tish joizki, o‘qish savodxonligidan ko‘zlangan asosiy maqsad va tushunish jarayoni bir-birlaridan yoki o‘quvchilar yashab, o‘rganadigan vaziyatdan ayro holda mavjud bo‘lmaydi.

**1-jadval: PIRLS tadqiqotida o‘qish savodxonligidan ko‘zlangan maqsad va tushunish jarayoni**

| **O‘qishdan ko‘zlangan maqsad** |
|---|
| Badiiy tajriba orttirish |
| Axborotni olish va undan foydalanish |
| **Tushunish jarayoni** |
| Diqqatni jamlash va aniq ko‘rsatilgan ma’lumotni topish |
| To‘g‘ridan-to‘g‘ri xulosalar chiqarish |
| G‘oyalar va ma’lumotlarni talqin qilish va uyg‘unlashtirish |
| Kontent, til va matn elementlarini tekshirish va baholash |

## PIRLS baholash qamrov doirasining PIRLS va ePIRLS tadqiqotida tutgan o‘rni

Yuqorida eslatib o‘tilgan o‘qish savodxonligidan ko‘zlangan ikkala maqsad va to‘rt tushunish jarayoni PIRLS va ePIRLS baholash dasturlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. 2-jadvalda PIRLS tadqiqotida baholanadigan o‘qish savodxonligidan ko‘zlangan maqsad va tushunish jarayoni hamda har birida baholanishining ko‘rsatkichlari foizlarda ko‘rsatib o‘tilgan.

**2-jadval: O‘qish savodxonligidan ko‘zlangan maqsad va tushunish jarayonini PIRLS va ePIRLS tadqiqoti tomonidan baholashning foizli ko‘rsatkichlari**

| | PIRLS | ePIRLS |
|---|---|---|
| **O‘qishdan ko‘zlangan masadlar** | | |
| Badiiy tajriba orttirish | 50% | 0% |
| Axborotni olish va undan foydalanish | 50% | 100% |
| **Tushunish jarayonlari** | | |
| Diqqatni jamlash va aniq ko‘rsatilgan ma’lumotni topish | 20% | 20% |
| To‘g‘ridan-to‘g‘ri xulosalar chiqarish | 30% | 30% |
| Kontent, til va matn elementlarini tekshirish va baholash | 30% | 30% |
| G‘oyalar va ma’lumotni talqin qilish va uyg‘unlashtirish | 20% | 20% |

## O‘qishdan ko‘zlangan maqsadlar

Ma’lumki, o‘qish savodxonligi insonlarning o‘qishdan ko‘zlagan maqsadlari bilan bevosita bog‘liqdir. Masalaga yanada kengroq yondashadigan bo‘lsak, mazkur sabab yoki maqsadlarga zavqlanish uchun, shaxsiy qiziqish tufayli o‘rganish va jamiyatda ishtirok etish kabilar kiradi. Ko‘pgina yosh o‘quvchilar endigina o‘qishni boshlaganlarida asosan hikoyali matnlar (masalan, hikoyalar yoki suratli kitoblar) yoki o‘quvchilarga o‘zlarini o‘rab turgan dunyo haqida axborot beruvchi va savollariga javob beruvchi ma’lumotlarga boy matnlarni o‘qiydilar. Yosh o‘quvchilar o‘qish savodxonligini rivojlantirib, tadqiqotga ko‘ra mazkur savodxonlik o‘quvchilarning o‘rganishlari uchun o‘qishlari kerakligini talab qilgani tufayli kitob va boshqa bosma materiallardan ma’lumot olish uchun o‘qish muhim ahamiyat kasb etmoqda.[62,63,64,65]

O‘qishdan ko‘zlangan maqsad bilan bir qatorda PIRLS tadqiqoti o‘quvchilardan o‘zlarining badiiy savodxonliklarini oshirish va ma’lumot olish, undan foydalanishlari uchun o‘qib tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishlari kerakligiga e’tibor qaratadi. O‘qishdan ko‘zlangan har ikkala maqsad ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun birdek muhim bo‘lgani bois, PIRLS tadqiqoti har bir maqsadni baholovchi, bir xil miqdordagi materiallardan tashkil topadi. Shunga qaramasdan, onlayn tarzda o‘qish asosan ma’lumot olish maqsadida amalga oshirilishi uchun, ePIRLS tadqiqoti topshiriqlari ma’lumot olish va ulardan foydalanish maqsadidagi o‘qishga qaratiladi.

ePIRLS tadqiqoti topshiriqlari ma’lumotlar uchun o‘qish ko‘nikmasini baholaydi. Berilgan topshiriqlar o‘quvchilarning matnlar va tasvirli ma’lumotlar bilan ishlashlari va maktabda berilgan topshiriqlarni bajarishlari uchun link va tablardan foydalanib, ma’lumot yig‘ishi mumkin bo‘lgan internet tarmog‘idan olingan veb sahifalarga yaqinlashtiriladi. Bunday yondashuv o‘quvchilarga tabiiy yoki ijtimoiy fanlar bo‘yicha maktabda berilgan topshiriqlarni bajarishda va ulardan maktab o‘quv jarayonlarida berilishi mumkin bo‘lgan qator loyihalar yoki hisobotlarni tayyorlashda yopiq internet muhitini yaratish uchun asos sifatida haqiqiy internet tarmog‘idagi veb sahifalardan foydalanishga asos bo‘ladi.

PIRLS matnlari o‘zining asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda tasniflanadi va ular asosida

berilgan savollar o‘qishdan ko‘zlangan maqsadlarda o‘z aksini topadi. Ya’ni, badiiy turkumga mansub matnlar mavzu, voqea syujetlari, voqea personajlari va voqea joyiga taalluqli savollardan, ma’lumotlarga boy matnlar esa matnlarda berilgan ma’lumotlarga oid savollardan iborat bo‘ladi. Garchi matnlar o‘qishdan ko‘zlangan maqsadidan kelib chiqib farqlansada, tushunish jarayoni har ikkala maqsad uchun farqli jihatga ega bo‘lmay, balki o‘xshashlikka ega bo‘ladi. Shuning uchun, o‘quvchilarning tushunish jarayoni barcha matnlar, jumladan, ePIRLS tadqiqotida internetdagiga yaqinlashtirilgan topshiriqlar orqali baholanadi.

Odatda o‘qishdan ko‘zlangan har qanday maqsad ma’lum turdagi matnlar bilan bog‘liqlikka ega. Masalan, badiiy tajriba orttirish uchun o‘qish odatda fantastik asarlarni mutolaa qilish bilan bog‘langan, vaholanki axborotni olish va undan foydalanish ma’lumotga boy maqolalar va ko‘rsatmaga oid matnlarni o‘qish bilan amalga oshiriladi. Shunga qaramasdan, o‘qishdan ko‘zlangan maqsadlar alohida matn turi bilan cheklanib qolmaydi. Masalan, tarjimai hollar odatda axborot beruvchi yoki badiiy turkumga mansub material hisoblanadi, ammo ular o‘qishdan ko‘zlangan har ikkala maqsad xususiyatlarini o‘z ichiga oladi.

Matnlar odatda, ulardan anglashilgan mazmunni turli usulda shakllantirish yordamida, ularda aks etgan fikr-mulohazalarni qay tartibda tashkillashtirilgani va taqdim etilganiga qarab farqlanadi. [66,67] Matnlar tuzilishi va shakliga ko‘ra, yozma materiallari tartib bilan joylashtirilgan matnlardan to tasvirli va jadvalli ma’lumotlar bilan to‘ldirilgan qisqa so‘zlar va iborali matnlargacha bo‘lib, ular bir-biridan keskin farq qiladi. Ma’lum matn janriga xos bo‘lgan mazmun, tarkib va uslub o‘quvchiga matnni o‘qib tushunishiga yaqindan yordam beradi. [68,69,70,71,72,73]

Aytib o‘tilganidek, o‘quvchi va matn o‘rtasidagi o‘zaro munosabat o‘rnatilsagina matnning mazmuni anglashiladi va o‘qishdan ko‘zlangan maqsadga erishiladi. PIRLS tadqiqoti uchun matnlarni saralab olishidagi asosiy maqsad, o‘qishdan ko‘zlangan maqsadlardan kelib chiqib bir necha matn turlarini taqdim etishdir. Bunda, asosiy maqsad o‘quvchilar bilan ham maktabda ham maktabdan tashqarida olib boriladigan o‘qish mashg‘ulotlariga o‘xshash muhit yaratishdan iboratdir.

## Badiiy tajriba orttirish uchun o‘qish

Badiiy kitoblarni o‘qishda o‘quvchilar voqealar, voqea joylari, obrazlar, oqibatlar, personajlar, asar muhiti, hissiyotlar va g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan matnni o‘qiydi va matn tilidan huzurlanadi. Adabiyotni tushunish va uni qadrlash uchun, har bir o‘quvchi matnda (asarda) sodir bo‘ladigan voqealar, hissiyotlar, tildan foydalanish san’ati hamda badiiy shakl haqida bilimni o‘z hayolidan o‘tkazishi kerak. Adabiyot yosh o‘quvchilar uchun o‘zlari hali boshidan kechirmagan holatlar va hissiyotlarni kashf etish imkoniyatini beradi.

Badiiy asarda tasvirlangan voqealar, harakatlar va hayoliy voqealar bo‘lsada, o‘quvchiga ular real hayotda sodir bo‘layotgandek tasavvur uyg‘otadi va o‘quvchiga ularni hayolan boshidan kechirish imkonini beradi. Matn (yoki badiiy asar) hikoya qilib beruvchi yoki uning asosiy qahramonini kelajakda nima qilmoqchi ekanini bildirib turishi mumkin. Murakkabroq matnlar esa undanda ko‘proq dunyoqarashni talab etishi yoki keskinliklarga ega bo‘lishi mumkin. Matnnning g‘oyasi va undagi ma’lumotlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki dialoglar va voqealar ko‘rinishida tasvirlanadi. Qisqa hikoyalar yoki

asarlarda odatda voqealar xronologik tartibda bayon qilinadi yoki asar voqealariga qaytish yoki vaqtni avvalga qaytarish orqali bayon qilinadi.

PIRLS xalqaro tadqiqotida qo‘llanilgan badiiy matnlarning asosiy shakli badiiy janrga mansub bo‘ladi. Ishtirokchi mamlakatlardagi o‘quv dasturlari va madaniy jihatdan yuzaga keladigan farqlaridan kelib chiqib, PIRLS xalqaro tadqiqoti doirasida ayrim badiiy matnlarni topshiriq sifatida olish qo‘shimcha murakkablik tug‘diradi. Masalan, she’riy matnlarni tarjima qilish o‘quvchilar uchun qiyinlik tug‘dirgani bois, ular topshiriq sifatida berilmaydi.

### Axborotni olish va undan foydalanish uchun o‘qish

Axborot beruvchi matnlar qator vazifalardan kelib chiqib yoziladi va o‘qiladi. Binobarin, axborot beruvchi matnlarning asosiy vazifasi ma’lumot berishdan iborat bo‘lgani sababli, odatda yozuvchilar o‘zlari yortimoqchi bo‘lgan mavzuga turli maqsad bilan yondoshadi. Ko‘p axborot beruvchi matnlarda faktlar biror topshiriqni bajarish bosqichlari yoki biografik tafsilotlar kabi to‘g‘ridan-to‘g‘ri bayon etiladi. Shunga qaramasdan, ayrim axborot beruvchi matnlar subyektiv xususiyatga ega. Masalan, mualliflar izohlovchi mulohazalar, undash xususiyatli insholar toki puxta o‘ylab chiqilgan mulohazalar orqali izohlar va faktlarni o‘quvchiga yetkazib berishi mumkin. O‘quvchi o‘z dunyoqarashini shakllantirish uchun mazkur matnlarga tanqidiy yondashishi kerak.

O‘quvchi matnlarning maqsad va vazifalariga yaxshiroq tushunishi uchun undagi ma’lumotlar boshqacha tartibda, ya’ni uning mazmuni, tuzilishi va shakli o‘zgartirilgan holda taqdim etilishi mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari turli mavzularni qamrab olgan axborot beruvchi matnlarni, jumladan, ilmiy, tarixiy, jo‘g‘rofiy yoki ijtimoiy matnlarni o‘qishlari mumkin. Bunday matnlar ham undagi o‘quvchiga yetkazib berilishi kerak bo‘lgan mazmun-mohiyatni ochiq berilishi nuqtai-nazaridan farqlanishi mumkin. Masalan, tarixiy ma’lumotlar xronologik tartibda, ko‘rsatmalar yoki yo‘riqnomalar ketma-ket tartibda va mulohazalar esa mantiqiy ketma-ketlikda tadqim etilishi mumkin (masalan, sabab va oqibat yoki qiyoslash va zidlash).

Ma’lumotlar turli formatlarda taqdim etiladi. Hatto bir matn ko‘rinishida taqdim etilgan ma’lumot ham faktlarni asoslashda jadvallardan, tasvirlarni tasvirlashda esa suratlardan iborat bo‘lishi mumkin. Har ikkala bosma materiallar (masalan, qo‘lyozmalar va gazetalar) va veb sahifalar ro‘yhatlar, chizmalar, grafalar va diagrammalar yordamida qator ma’lumotlarni taqdim etishi mumkin. Bundan tashqari, reklama yoki e’lonlarda bo‘lgani kabi so‘zlar katta hajmli matn yoki izohlar, ro‘yhatlar yoki vaqt chizig‘i kabi qo‘shimcha ma’lumotlardan iborat matnga ilova qilingan ustun (rukn) shaklida bo‘lishi shart emas.

Veb sahifalar bosma formatda nashr qilinishi mumkin bo‘lmagan tajribaviy va interfaol xususiyatga egaligi va ularda ma’lumotlarning taqdim etilishiga ko‘ra ko‘p vazifali bo‘lishi mumkin. Ko‘p vazifali matnlar ularda mujassamlashtirilgan ma’noni o‘quvchi o‘qib tushunishi uchun ko‘p vazifali, muloqotga yo‘naltirilgan usullardan foydalanadi va keyin bu usullar umumlashtiriladi.[74] Masalan, onlayn matnlarda tadqim etilgan ma’lumotlar odatda o‘quvchilarning qiziqishlarini oshirish uchun unda ishlatiladigan tasvirlar yoki ko‘rgazmali vositalardan iborat quyidagi turli rang-barang (dinamik) vositalarni o‘zida mujassamlashtiradi: videolar va audio kliplar, animatsion tasvirlar, tugmachani bosgandagina

ko‘rinadigan ma’lumotli, ochilib namoyon bo‘ladigan oynachalar, ekrandagi oynachalarni ekran bo‘ylab “yuqoriga” yoki “pastga” tushiradigan yordamchi applikatsiyalar hamda ma’lumotlari paydo bo‘lib, yo‘qolib qoladigan, aylanib turadigan yoki rangi o‘zgaradigan turli kodlashtirilgan qo‘shimcha imkoniyatlar. Bosma matnlar ham odatda ko‘p vazifali va yozma matn bo‘ylab joylashtirilgan fotosuratlar, diagrammalar, chizmalar yoki boshqa ko‘rgazmali vositalardan iborat bo‘ladi. [75]

Internetdan ma’lumotni qidirish va uni o‘rganish murakkab o‘qish tartibida joylashtirilgan ma’lumotni tushunishni taqozo etadi. Ma’lumotlarni onlayn tarzda o‘qib tushunish yordamida samarali o‘rganish o‘quvchidan mazmunan zid yoki to‘liqsiz ma’lumotlarni o‘zida jamlagan, katta hajmli matnlarni umumlashtirishni taqozo etadi.[76] Birlamchi ma’lumotlar, berilgan topshiriqqa muvofiqlik va boshqa manbalar bilan bog‘liqlik kabi matnga xos elementlar va xususiyatlar matnlarni bir-biri bilan umumlashtirish uchun idrok etilishi va baholanishi kerak. [77,78,79]

Internetda samarali ishlay olish va tushunish ko‘nikmasining asosi o‘quvchining ehtiyojlarini qondiradigan ma’lumotlarni topa olish qobiliyati bilan bog‘liq. O‘quvchilar o‘zida birlamchi ma’lumotlarni jamlagan vebsaytlarni topib, saralay olishi, kerakli veb sahifalar bilan ishlay olishi va yangi veb sahifalarni ochib beradigan ilovalar bilan ishlay olishi kerak. Internetdan ma’lumotlarni topish o‘quvchi hali o‘qib ulgurmagan matnlarni qay darajada foydali bo‘lishi haqida tasavvur qilishini taqozo etadi (masalan, qidiruv natijalari yoki ilovalarini ko‘zdan kechirayotganda). Internetdan ma’lumotlarni qidirib topish uchun o‘quvchi ko‘p ma’lumotlarni o‘zida jamlagan qator veb saytlar ichidan keraklisini tanlashi kerak. Ekranda veb sahifa yoki ma’lumot paydo bo‘lgach, o‘quvchi elektron shakldagi matnlar va ma’lumotlar yuzasiga joylashtirilgan keraksiz reklama havolalarini o‘chirib tashlab, qo‘lga kiritilgan turli matnlar va ma’lumotlarning muvofiqlarini ajratib oladi. Bu esa o‘quvchidan boshqa qiziqarli reklama yoki mavzularga chalg‘imasdan, o‘zi bajarmoqchi bo‘lgan topshiriqqa (vazifaga) e’tibor qaratgan holda, o‘z maqsadi sari og‘ishmasdan harakatlanishni talab etadi.

PIRLS xalqaro tadqiqotida qo‘llanilgan axborot beruvchi matnlar o‘quvchining ham maktabda ham maktabdan tashqarida axborot beruvchi matnni o‘qib tushunish ko‘nikmasini aks ettiradi. Odatda, mazkur matnlar va ayrim ePIRLS veb saytlari yosh o‘quvchilar auditoriyasi bilan ishlash tajribasiga ega mualliflar tomonidan yoziladi va o‘zlarining o‘quvchilari o‘qiydigan axborot beruvchi materiallarga namuna sifatida ishtirokchi mamlakatlar tomonidan taqdim etiladi.

## Tushunish jarayonlari

Turli o‘qish tarzi o‘quvchilardan matn mazmunini turli xil usulda shakllantirishni taqozo etadi. Shuning uchun, PIRLS tadqiqoti odatda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tomonidan qo‘llaniladigan to‘rt tushunish jarayonini baholaydi. Bu to‘rtala tushunish jarayonlariga diqqatni jamlash va aniq ko‘rsatilgan ma’lumotni topish; to‘g‘ridan to‘g‘ri xulosalar chiqarish; kontent, til va matn elementlarini tekshirish va baholash; g‘oyalar va ma’lumotni talqin qilish va uyg‘unlashtirish kiradi. Mazkur jarayonlar chegarasidan o‘qib, o‘quvchilarga o‘qib tushunish ko‘nikmasini tekshirish va o‘z qarashlarini o‘zgartirish imkonini beradigan tushunish jarayonlari va strategiyalarini o‘zlashtiradi. [80,81,82,83,84,85] Bundan tashqari, o‘quvchilarni o‘qib tushunishlari uchun kerak bo‘ladigan bilim va birlamchi tajribalari ularga tilni, matnlarni, dunyoni tushunishlariga yordam berib, ular bu bilim va ko‘nikmalaridan foydalanib, biror material (yoki ma’lumot) haqidagi tushunchalarini tahlil qiladi. [86,87,88,89,90,91]

Onlayn tarzda o‘qiladigan ma’lumotlar mazmunini shakllantirish an’anaviy bosma materiallarni o‘qib tushunish uchun talab etiladigan o‘qib tushunish jarayoni bilan yangi raqamli savodxonlikni birlashtirilishini taqozo etadi. ePIRLS tadqiqoti o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmasini baholabgina qolmay, balki PIRLS tadqiqoti doirasida beriladigan matnlardan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarni qator veb sahifalardan fotosuratlar, chizmalar, xaritalar, jadvallar va boshqa vizual vositalar hamda videolar, animatsiyalar va ekranda vaqtincha ochilib-yopilib turadigan oynachalar kabi boshqa innovatsion imkoniyatlar bilan birga qo‘llay olishga o‘rgatishdir.

PIRLS va ePIRLS dasturlarida to‘rtala tushunish jarayoni har bir beriladigan matn (yoki matnlar jamlanmasi) yoki topshiriqqa asoslangan o‘qib tushunishga yo‘naltirilgan savollarni takomillashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Matnlar bilan ishlash mobaynida, o‘quvchilarning matnni o‘qib tushunish jarayonini baholashga mo‘ljallangan qator savollar ularga yozma matnlarning mazmunini tushunishlarida o‘zlarining bilim va tajribalarini namoyon etishlariga imkon beradi.

Tadqiqot doirasidagi topshiriqlar haqida fikr yuritganda o‘qishga oid topshiriqni bajarish uchun talab etiladigan murakkab tushunish jarayoni va matnning murakkablik darajasi va hajmi o‘rtasida sezilarni bog‘lilkil mavjud ekanini esdan chiqarmaslik zarur. Avvala, shuni alohida e’tirof etib o‘tish joizki, aniq bayon etilgan ma’lumotga e’tibor qaratish va qidirish, aytaylik, butun bir matnni o‘qib talqin etish va talqin etilgan matn mazmunini avval o‘zlashtirilgan mulohaza va tajribalar bilan taqqoslashdan qiyin bo‘lib ko‘rinishi mumkin. Shunday bo‘lsada, matnlar va topshiriqlar ularning hajmi, sintaktik jihatdan murakkabligi, ularda ifoda qilingan fikr-mulohazalarning mavhumligi, tashkiliy tuzilmasi va anglash uchun qo‘yiladigan talabdan kelib chiqib bir-biridan farqlanishi mumkin. Shunday ekan, matnning o‘ziga xos xususiyati berillayotgan savollarning murakkabligiga hamda to‘rtala tushunish jarayonlarining har biri va ularning barchasi uchun ta’sir ko‘rsatadi.

### Diqqatni jamlash va aniq ko‘rsatilgan ma’lumotni topish

O‘quvchilar matnda aniq bayon qilingan ma’lumotlarga turlicha diqqat-e’tibor bilan qaraydilar. [92,93] Matnda bildirilgan ayrim fikr-mulohazalar o‘quvchilarning diqqat-e’tiborlarini jalb etadi, ba’zilari esa ularda hech qanday qiziqish uyg‘otmaydi. Masalan, agar matndagi fikr-mulohazalar o‘quvchilar matn

mazmuni yoki o‘qishdan ko‘zlagan umumiy maqsadiga oid fikr-mulohazalariga zid yoki ularni tasdiqlasa, o‘quvchilar ayni shunday fikrlarga ko‘proq e’tibor qaratadi. Bundan tashqari, o‘quvchilar odatda o‘qish bo‘yicha berilgan savolga javob berish yoki matnning ayrim jihatlari qay daraja tushunganliklarini tekshirish uchun undagi ma’lumotlarni qidirib topishga harakat qiladi.

Kintsch V va Kintsch E [94] tomonidan ta’kidlanganidek, ma’lumotni qidirish yaxlit bir matn yoki uning alohida qism birliklarini hosil qilish uchun bir-biri bilan bog‘lanishi mumkin bo‘lgan ketma-ket g‘oyaviy birliklar bilan tugaydi. Bundan tashqari, matnning “kichik birliklar” deb nomlanadigan turli bo‘laklari orasida ham bog‘lanish mavjud bo‘ladi. Matnning kichik va katta birliklari matn asosini tashkil etib, u matnga juda o‘xshab ketadi, ammo haqiqiy tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. (Hatto mulohazalar odatda matn yaxlitligi uchun zarur bo‘lsada) aniq bayon etilgan ma’lumotga e’tibor qaratish va qidirish qobiliyati matn asosini tashkil qiluvchi asosiy vosita hisoblanadi. Odatda, matnni qayta tahlil qilishning bu turi o‘quvchidan matn mazmunini tushunishi uchun undagi so‘zlarga, iboralarga va gaplar ketma-ketligiga e’tibor qaratishni talab etadi. [95,96] Shuningdek, matn katta birliklarini hosil qilinishi o‘quvchidan hikoyadan chiqariladigan xulosa yoki taqdim etilayotgan ma’lumotning tarkibiy xususiyatini anglab yetish imkonini beruvchi, matndagi bir-biriga mantiqiy bog‘langan ma’lumotlarni qidirib topishini talab etadi.

Avvalgi tadqiqotlarda kuzatilganidek, PIRLS 2021 xalqaro tadqiqotining o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi mavjud tadqiqot bazasini shakllantirish va PIRLS xalqaro tadqiqoti natijalari o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajalarini yuqori pog‘onaga ko‘tarish uchun xizmat qilishida ta’lim sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan mutasaddilarga va mutaxassislarga yanada ko‘proq amaliy yordam berishdan iborat. Bu esa sohadagi yo‘nalishlar ko‘lamini saqlab qolish va kengaytirish uchun ma’lumotlar to‘plashni davom ettirish kabi yuqori darajadagi rejalarni o‘z ichiga oladi, ammo, shu bilan birgalikda, “zamon bilan hamnafas bo‘lishni” va tadqiqotning yangidan-yangi qirralarini kashf etishni va tegishli islohotlarni joriy etishni taqozo etadi.

*PIRLS 2021 tadqiqotida so‘rovnomalar qamrov doirasi* qisqa mantiqiy izohlar berib o‘tish orqali PIRLS 2021 so‘rovnomalari natijasida to‘planadigan ma’lumotlarni umumlashtiradi. Mazkur qamrov doirasi o‘quvchilarning o‘qib tushunish darajalariga keng ta’sir ko‘rsatuvchi quyidagi bir nechta omillarga asoslanib tuzib chiqilgan: (uy muhiti), maktab muhitilar, sinf sinf muhiti bilan bog‘liq omillar, o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlari hamda o‘ziga xos milliy omillar.

## Ma’lumotlarni to‘plash usullari

Avvalgi baholash dasturlari bilan hamohang ravishda PIRLS 2021 xalqaro tadqiqoti turli ishtirokchi mamlakatlarning ta’lim jarayonlari, o‘quvchilarning ota-onalari va vasiylari, maktab direktorlari va ularga ta’lim berayotgan o‘qituvchilar bilan bog‘liq so‘rovnomalar o‘tkazish orqali o‘quvchilarning o‘qib o‘rganishlari uchun kerakli omillar haqida ma’lumotlar to‘playdi. O‘quvchilarning o‘zlari ham so‘rovnoma to‘ldiradilar. Mazkur to‘rt turdagi so‘rovnoma natijalari orqali o‘quvchilarning yashash sharoiti, maktab va sinfxonada yaratilib berilgan sharoitlar haqida qimmatli ma’lumotlar to‘planadi. O‘ziga xos milliy omillarga kelsak, PIRLS 2021 xalqaro tadqiqoti har bir ishtirokchi mamlakat o‘quvchilarining o‘qib ta’lim olish ko‘nikmalariga nisbatan yondashuvlarini ifoda qiluvchi har bir tadqiqot jarayonida chop etib boriladigan PIRLS ensiklopediyasini yangilab boradi. Avvalgi tadqiqotlarida bo‘lgani kabi har bir ishtirokchi mamlakat tanlab olingan vakillar *PIRLS 2021 xalqaro tadqiqoti ensiklopediyasi* mundarijasini tuzishga ko‘maklashadi. Ular milliy miqyosda ta’limda olib borilayotgan islohotlarga oid so‘rovnomalarni to‘ldiradilar va mamlakatning o‘quv dasturlari va olib boriladigan amaliy mashg‘ulotlarni tasvirlovchi ensiklopediyaga o‘z hissasini qo‘shadi.

Har bir o‘quvchining matnni o‘qib tushunish darajasi bilan bog‘liq ma’lumot beruvchi to‘rt PIRLS 2021 so‘rovnomasi haqida quyida batafsil to‘xtalib o‘tiladi.

- O‘quvchilarning o‘qib o‘rganish darajasini tadqiq etish deb nomlangan uy so‘rovnomasi PIRLS 2021 tadqiqoti doirasida ma’lumotlar to‘plash jarayonida qatnashuvchi har bir o‘quvchining ota-onasi yoki unga g‘amxo‘rlik qiluvchi shaxsga beriladi. Mazkur 10-15 daqiqada to‘ldiriladigan qisqa so‘rovnoma uyda so‘zlashiladigan til, ota-onaning o‘qish faoliyati va o‘qishga nisbatan munosabati, ota-onaning ta’lim olganlik darajasi va kasbi kabi uy bilan bog‘liq omillar haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, so‘rovnoma o‘quvchining bolalikda olgan ta’limi, ilk savodxonlik darajasi, raqamlar bilan ishlash darajasi hamda o‘quvchining umumiy o‘rta-ta’lim maktabni boshlaganda o‘qib tushunishga tayyorgarlik darajasi haqida ham ma’lumot to‘playdi.
- O‘quvchilarga o‘qish fanidan dars berayotgan o‘qituvchilar tomonidan to‘ldiriladigan o‘qituvchi so‘rovnomasida sinf xonasining (ta’lim jarayonining) o‘ziga xos xususiyati, o‘qish uchun ajratilgan vaqt va ko‘rsatmali yondashuvlar kabi ularning ta’lim olishiga yo‘naltirilganligiga oid ta’lim jarayoni bilan bog‘liq omillar haqida ma’lumot to‘planadi. Shuningdek, so‘rovnomada o‘qituvchining o‘z kasbidan mamnunligi va hozirgi kasbiy faoliyati kabi o‘qituvchi shaxsiyati haqida savollar so‘raladi. So‘rovnomani to‘ldirish uchun 35 daqiqa vaqt ajratiladi.
- Har bir ishtirok maktab direktori tomonidan to‘ldiriladigan maktab so‘rovnomasida o‘quvchi demografiyasi, maktab muhiti va maktabda yaratib berilgan imkoniyatlar va texnologik vositalar kabi maktab bilan bog‘liq savollar so‘raladi. So‘rovnomani to‘ldirishga taxminan 30 daqiqa beriladi.
- O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunish darajasini baholash topshiriqlarini yakunlab bo‘lgach, barcha ishtirokchi o‘quvchilar tomonidan to‘ldiriladigan o‘quvchi so‘rovnomasi o‘quvchilarning o‘rganishlari uchun uylarida mavjud kitoblar va boshqa manbalar, o‘quvchilarning maktabdagi umumiy holati, jumladan, ularning maktab muhitiga moslashganlik darajasi yoki ularning boshqa o‘quvchilar tomonidan tahqirlanishi yoki tahqirlanmasligi va ularning ta’lim olishga yo‘naltirilganligi kabi o‘quvchining yashash sharoiti bilan bog‘liq omillar haqida ma’lumotlar

to‘planadi. Shuningdek, o‘quvchilardan ularning maktabdan tashqari o‘qib o‘rganish tarzi va o‘qishga nisbatan munosabati haqida ham savollar beriladi. Mazkur so‘rovnomani to‘ldirish uchun ularga 30 daqiqagacha vaqt beriladi.

## Rivojlanish jarayoni

O‘quvchilarning o‘qib o‘rganishlari uchun ta’lim jarayonida yaratib berilgan sharoitlarni yoritib berish maqsadida PIRLS xalqaro tadqiqotida ishtirokchi mamlakatlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish fanidan o‘zlashtirish darajasi hamda har bir o‘tkaziladigan tadqiqot jarayonlarida kuzatilgan o‘zgarishlarni talqin qilishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan maktab va uy bilan bog‘liq omillarning tegishli va o‘zgaruvchan xususiyatlariga e’tibor qaratiladi.

So‘rovnomalar natijasida qo‘lga kiritilgan ma’lumotlarni ishonarli tarzda umumlashtirish maqsadida PIRLS xalqaro tadqiqoti qiziqarli mavzularga oid qator savollar tuzish va savollarga berilgan javoblarni birma-bir e’lon qilishdan ko‘ra umumiy shkala tarzida umulashtirish amaliyotini yo‘lga qo‘ygan. Mazkur amaliyot natija shkalalarini tuzishda topshiriqqa berilgan javob nazariyasidan (IRT) foydalanib, joriy etilgan PIRLS 2021 baholash tadqiqoti va ilk o‘tkazilgan baholash jarayonlari natijasida shakllangan.[1] PIRLS tadqiqotida joriy etilgan shkalalar ota-onalarning farzandlarining ilk savodxonlik faoliyati va ularning maktabdagi xavfsizligi kabi o‘quvchilarning o‘qib o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni baholaydi. 2016-yilda joriy etilgan PIRLS tadqiqotidan to PIRLS 2021 tadqiqotiga qadar so‘rovnoma shkalalarining baholash xususiyati va tarkibiy tuzilishini takomillashtirish bo‘yicha qator ishlar olib borilmoqda.

So‘rovnoma qamrov doirasi va har bir PIRLS baholash tadqiqoti uchun tuzilgan so‘rovnomalarni yangilab borish maqsadida TIMSS va PIRLS xalqaro tadqiqot markazi PIRLS so‘rovnomalar tuzuvchi guruh (QDG) hamda milliy tadqiqot koordinatorlari (NRC) bilan hamkorlik qiladi. Bu o‘zgarishlar yangi mavzularni qo‘shilishini, shkalalarni takomillashtirilishini va eskirgan mavzularni olib tashlashni o‘z ichiga oladi. PIRLS xalqaro tadqiqotining yaratilish jarayoni 2018-yilning dekabr oyida boshlangan bo‘lib, o‘shanda barcha ishtirokchi mamlakatlardagi PIRLS 2021 milliy tadqiqot koordinatorlar so‘rovnomalarni yangilash bo‘yicha o‘z takliflarini berganlar. TIMSS va PIRLS xalqaro tadqiqot markazida faoliyat ko‘rsatadigan ishchi-mutaxassislar milliy tadqiqot koordinatorlari tomonidan berilgan tavsiyalar asosida uy, maktab, o‘qituvchi va o‘quvchi so‘rovnomasini yangiladi va yangilangan so‘rovnoma qamrov doirasini xomaki variantini taklif etdi. PIRLS 2021 so‘rovnomalar tuzuvchi guruhi 2019-yilning fevral oyida o‘tkazilgan o‘zining birinchi yig‘ilishida yangilangan qamrov doirasi va so‘rovnomalarni qayta ko‘rib chiqdi. Natijada, TIMSS va PIRLS xalqaro tadqiqot markazi ishchi-mutaxassislari qamrov doirasi nashrga berilgunga qadar milliy tadqiqot koordinatorlari tomonidan onlayn taqriz berilishi orqali qayta ko‘rib chiqishdi. So‘rovnomalar tajriba sifatida sinovga qo‘yilishidan avval 2019-yilning iyun oyida milliy tadqiqot koordinatorlarining uchinchi yig‘ilishida koordinatorlar tomonidan qayta ko‘rib chiqildi va ularga tuzatishlar kiritildi. Tajriba sinovi o‘tkazilgach, so‘rovnomalar tuzuvchi guruh va milliy tadqiqot koordinatorlari PIRLS 2021 tadqiqoti tomonidan ma’lumotlar yig‘ilishi uchun so‘rovnomalar qayta ko‘rib chiqiladi va yakunlanadi.

Bo‘limning keyingi boblarida PIRLS 2021 tadqiqoti tomonidan ma’lumotlar to‘planishining texnik talablari haqida so‘z boradi.

## Uy muhiti

PIRLS xalqaro tadqiqotida o‘quvchilarning o‘qib o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini rivojlantirishda ularning yashash sharoitlari bilan bog‘liq omillarni qanchalik ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. PIRLS 2021 tadqiqotida o‘quvchilarning bilim olishlari uchun alohida ahamiyatga ega ikkita asosiy omilga e’tibor qaratiladi. Bular o‘rganish uchun yaratilgan muhit va o‘quvchining savodxonlik darajasiga beriladigan urg‘uni o‘z ichiga oladi.

### O‘rganish uchun yaratilgan muhit

### O‘rganish uchun uyda mavjud bo‘lgan manbalar

Ta’lim jarayoni bilan bog‘liq tadqiqotlarda o‘quvchilarning ota-onalari yoki ularga g‘amxo‘rlik qiluvchi shaxslarning ijtimoiy va moliyaviy ahvollariga tegishli omillar o‘quvchilarning o‘zlashtirishlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. [2,3,4,5,6] Ijtimoiy va moliyaviy ahvol odatda ota-onalarning ta’lim olganlik darajasi, daromadlari va kasbiy tabaqalari kabi ko‘rsatkichlar orqali ko‘rsatib beriladi. 2001-yilda PIRLS xalqaro tadqiqoti ilk bor o‘tkazilganidan beri ijtimoiy va moliyaviy ahvol ko‘rsatkichlariga oid ma’lumotlar berib boriladi. 2011-yilda PIRLS xalqaro tadqiqoti ota-onalarning ta’lim olganlik darajasi, kasbi va uyda mavjud manbalarga (masalan, uyda mavjud bo‘lgan kitoblar, bolalar uchun kitoblar va bolaning uyda ta’lim olishini qo‘llab-quvvatlanishi kabilarga) qaratilgan savollarga berilgan ota-onalar va o‘quvchilarning javoblari asosida *O‘rganish uchun uyda mavjud bo‘lgan manbalar* shkalasi ishlab chiqildi. *O‘rganish uchun uyda mavjud bo‘lgan manbalar* shkalasi o‘quvchining o‘rganishiga imkon beruvchi uyda mavjud bo‘lgan manbalarga nisbatan ijtimoiy va moliyaviy ahvol tushunchasi kengaytirildi.

### O‘qishni yoqtiruvchi ota-onalar

O‘qishni yoqtiradigan va o‘zlari ham mutolaa qilib turadigan ota-onalar farzandlari uchun eng yaxshi namuna bo‘ladi. Uyda o‘qish muhitini yaratilishi bolaning o‘qishga bo‘lgan rag‘batini oshirishga va o‘qib o‘zlashtirish ko‘rsatkichini yaxshilashga turtki bo‘lishi mumkin.[7,8,9] Ota-onalarning o‘qish tarzi va o‘qish haqidagi tasavvurlari ham bolaning o‘qishga nisbatan rag‘batlantirilishiga yordam beradi.[10] Ijtimoiy muomalaga kirishish o‘ta nozik jarayon bo‘lib, (masalan, o‘zlaridan katta opa yoki akalarini o‘qiyotganini, o‘qish uchun turli bosma materiallardan foydalanayotganini ko‘rgan bolalar) mazkur jarayon o‘quvchining o‘zlashtirish darajasiga katta ta’sir ko‘rsatadi.[11] PIRLS xalqaro tadqiqoti 2001-yilda ota-onalarning o‘qish tarzi va ushbu mashg‘ulot bilan shug‘ullanishi borasida ma’lumotlar to‘plashni boshladi va 2011-yilda *Ota-onalar o‘qishni yoqtiruvchi ota-onalar shkalasini* ishlab chiqdi. O‘qishni yoqtiruvchi ota-onalar ko‘rsatkichlari o‘qish faoliyatini muhim deb hisoblash va odatda vaqtni maroqli o‘tkazish uchun kitob o‘qish kabilarni o‘z ichiga oladi.

### Uyda so‘zlashiladigan til

Odatda ayrim o‘quvchilar, ayniqsa, immigrant oilalarda ulg‘ayayotgan bolalar, uyda boshqa tilda maktabda esa boshqa tilda so‘zlashadi. Bundan tashqari, ayrim ota-onalar farzandlarini ko‘p tillarda so‘zlashishlariga e’tibor qaratadi va ular uyda bir necha tilda so‘zlashishlariga harakat qiladi. O‘qish ko‘nikmasini hosil qilish uchun o‘rganish bolaning ilk til o‘rganish ko‘nikmasiga bog‘liq bo‘lgani tufayli

uyda so‘zlashiladigan til(lar) va ulardan qanday foydalanilishi bolaning o‘qish savodxonligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.[12] Agar o‘quvchi o‘qitilayotgan tilni yaxshi bilmasa, ko‘p hollarda ularning o‘rganish jarayonida bo‘shliq hosil bo‘ladi, chunki u maktab o‘quv jarayoni mobaynida o‘qitiladigan tushunchalarni yangi tilda o‘rganishi kerak bo‘ladi.[13,14] PIRLS xalqaro tadqiqoti birinchi bor o‘tkazilgan PIRLS tadqiqoti siklidan beri o‘quvchining birlamchi til ko‘nikmasiga oid ma’lumot to‘plab kelmoqda.

## Savodxonlikning ahamiyati

### Ilk savodxonlik faoliyati

Qator olib borilgan tadqiqotlar, jumladan, PIRLS tadqiqoti natijalari o‘quvchilarning o‘qish fanidan yuqori ko‘rsatkichlarni ko‘rsatishida yoshlikda savodxonlikni oshirishga qaratilgan mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishlari katta ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatib berdi.[15,16,17,18,19] Mazkur mashg‘ulotlarga misol qilib kitob mutolaa qilish, hikoyalar aytish, alifboli o‘yinchoqlarni o‘ynash, boshqa bolalar bilan muloqot qilish, bolalarni harflar va so‘zlarni yozishiga ko‘maklashish hamda belgilar va turli yorliqlarni ovoz chiqarib talaffuz qilish kabilarni o‘z ichiga oladi. Ehtimol bolaning erta yoshidan savodxonlik darajasini o‘stirishga qaratilgan eng keng tarqalgan va muhim mashg‘ulot bu - o‘spirinlar va yoshi kattalarni bolalarga biror materialni ovoz chiqarib o‘qib berishidir.[20,21,22] Ovoz chiqarib o‘qilganda bola og‘zaki tilga moslashadi va bu uning savodxonligini oshirishi uchun muhimdir. [23,24,25] 2001-yilda o‘tkazilgan PIRLS tadqiqotidan boshlab, undan keyingi har bir siklda, ota-onalardan o‘z farzandlarining ilk savodxonlik mashg‘ulotlari haqida so‘raladi. 2011-yilda PIRLS va TIMSS dasturlari birgalikda faoliyat olib borishlari natijasida *umumiy o‘rta-ta’lim maktabida o‘qishdan avvalgi boshlang‘ich savodxonlik mashg‘ulotlari* shkalasi o‘quvchining boshlang‘ich raqamlar bilan ishlash mashg‘ulotlari haqida savollar bilan to‘ldirildi. PIRLS 2021 tadqiqotida ota-onalardan o‘z farzandlari bilan ularning boshlang‘ich savodxonliklarini o‘stirish va raqamlar bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish ustida shug‘ullangan yoki shug‘ullanmagani so‘raladi.

### Maktabgacha ta’lim

Sohada olib borilgan ko‘plab izlanishlarda yuqori ta’lim samaradorligiga nisbatan qo‘yilgan ilk qadam sifatida maktabgacha ta’limning (masalan, maktabgacha ta’lim, bog‘cha, maxsus boshlang‘ich ta’lim dasturlarining) ahamiyati alohida ta’kidlab o‘tilgan.[26] Yuqori saviyada tashkillashtirilgan maktabgacha ta’lim va boshqa boshlang‘ich faoliyat turlari ayniqsa o‘zlashtirishi qiyin bo‘lgan o‘quvchilar uchun foydali hisoblanadi, chunki bular past o‘zlashtirish darajasini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. [27,28] PIRLS tadqiqotida ota-onalardan o‘z farzandlarining maktabgacha olgan ta’limi va ta’lim jarayonlariga jalb etilish davomiyligi haqida ma’lumotlar to‘planadi.

### Boshlang‘ich maktabga borishda ilk savodxonlikning vazifalari

Yuqori saviyada tashkillashtirilgan maktabgacha ta’lim va uyda olib boriladigan boshlang‘ich savodxonlik mashg‘ulotlari o‘quvchilarni yuqori sinflarga o‘tganlarida yuqori o‘zlashtirish darajasiga ega bo‘lishlariga imkon beruvchi birlamchi savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. PIRLS tadqiqoti natijalari shuni ko‘rsatadiki, farzandlari maktabga chiqmasidan avval birlamchi

savodxonlik topshiriqlarini bajargan ota-onalarning ta'kidlashicha, bunday bolalar keyinchalik yuqori sinfga o'tganda ham yaxshi ko'rsatkich ko'rsatishini aytib o'tishgan. 2011-yilda ishlab chiqilgan *Maktabga chiqishdan avval birlamchi savodxonlik topshiriqlarini bajara olish* shkalasida ota-onalardan farzandlari alifbodagi ko'p harflarni bilishi va ayrim so'zlarni yoza olishi kabi muayyan savodxonlik mashg'ulotlarini bajargani haqida savol so'raladi.

### Ota-onalarning farzandlarining ta'lim olishidan ko'zlagan maqsadlari

Ota-onalar o'z farzandlaridan ko'p narsalarni kutishadi va ular bunga erishishlari uchun sharoit yaratishga harakat qilishadi.[29,30] Bularga ota-onalar va farzandlarning ta'limning ahamiyati haqida o'zaro suhbatlashishi, bolaning kelajakda ta'lim va kasbdan kutadigan natijalarini muhokama qilishi va bolaga maktabda olgan ta'limi bilan uning real hayotda qo'llash o'rtasidagi bog'lanish haqida mulohaza yuritishga yordamlashishini misol qilib ko'rsatish mumkin.[31,32] PIRLS tadqiqotida ota-onalardan farzandlari olgan ta'limdan nimalarni kutishlari haqida so'raladi.

## Maktab muhiti

PIRLS 2021 xalqaro tadqiqotida o'rganish jarayonida maktab bilan bog'liq omillar haqida ma'lumotlar to'planadi. Bularga ta'lim uchun bevosita va umumiy tarzda mo'ljallangan mavjud o'quv inventarlari, o'rganish uchun maktabda yaratilgan muhit, maktabdagi xavfsizlik va ma'lum tartibni joriy qilinganlik darajasi va o'qish ko'nikmasini hosil qilishda maktab tomonidan qaratilgan e'tibor kabilar kiradi.

### Maktab resurslari

### Maktabdagi o'quvchilar tarkibi

**Ijtimoiy-iqtisodiy holat** — Koulmanning ta'kidlashicha[33], o'quvchining o'qish ko'nikmasini o'zlashtirishiga o'quvchilar tarkibining ijtimoiy va moliyaviy holati qay darajada bog'langan ekani borasida ko'p qiziqishlar bildirilgan.[34,35,36] Kam ta'minlangan oilalarda ulg'aygan o'quvchilar nisbatan yaxshi sharoitda ulg'aygan o'quvchilar bilan birga o'qisa, ular yuqoriroq o'zlashtirish ko'rsatkichiga ega bo'lishi mumkinligi isbotlangan. Ba'zi olimlarning ta'kidlashicha, bu sinfdoshlar o'rtasida yuzaga keladigan, o'qishga bo'lgan kuchli raqobat bilan bog'liq ekani bilan izohlanadi.[37] Ijtimoiy va moliyaviy jihatdan barqaror maktablarda ta'lim oladigan o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichining ancha yuqori darajada ekanligi bunday maktablarda yaratib berilgan yaxshiroq imkoniyatlar va o'quv materiallarining mavjudligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, ayrim mamlakatlarda kam ta'minlangan oilalardan bo'lgan o'quvchilar soni ko'p bo'lgan maktablarda yuqori malakali o'qituvchilarni jalb qilishda oqsoqlik kuzatiladi[38,39]. PIRLS tadqiqotida doimiy ravishda maktablardan ularda tahsil olayotgan o'quvchilar kontingentining ijtimoiy va iqtisodiy ahvoli, o'ziga to'q va kam ta'minlangan oiladan chiqqan o'quvchilar foizi haqida ma'lumotlar to'planadi.

**Maktabda so'zlashiladigan tillar** — asosiy o'qitiladigan tildan boshqa tillarda so'zlashuvchi o'quvchilar tahsil oladigan maktablar mazkur o'quvchilarni qo'shimcha qo'llab-quvvatlash uchun

kerakli manbalar bilan ta'minlashi va muayyan tartiblar joriy etilishi mumkin. 2001-yildan beri PIRLS tadqiqotida maktab direktorlaridan tadqiqotlarda qatnashuvchi o'quvchilarning necha foizi mahalliy tilda so'zlashishi haqida so'raladi. Avvalgi o'tkazilgan PIRLS tadqiqotilarida ishtirok etuvchi o'quvchilarning ko'pchiligi mahalliy tilda so'zlashuvchi o'quvchilardan tashkil topgan maktablar yuqoriroq o'zlashtirish ko'rsatkichini ko'rsatganligi e'tiborga molikdir.

**Boshlang'ich sinfga qabul qilinadigan bolalarning savodxonlik darajasi** — Maktabgacha ta'limga ega bo'lish va uy sharoitida o'rganish ko'nikmasini hosil qilinishi umumiy o'rta-ta'limda tahsil olish uchun tayyorgarlik ko'rishda kerakli savodxonlik darajasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Savodxonlik darajasiga ega bo'lib, boshlang'ich sinfga qabul qilingan o'quvchilarning umumiy o'rta-ta'lim maktablarida o'qishni davom ettirishlari oson bo'ladi. 2001-yildan buyon PIRLS xalqaro tadqiqoti doirasida boshlang'ich sinfga qabul qilinayotgan o'quvchilarning savodxonlik darajasi haqida ma'lumotlar to'planadi. Maktab direktorlari tomonidan beriladigan tavsiyalar asosida muayyan savodxonlik daraja bilan boshlang'ich sinflarga qabul qilingan o'quvchilar foizini aniqlash uchun 2011-yili PIRLS tadqiqoti doirasida *O'quvchilar birlamchi savodxonlik darajalari bilan boshlang'ich sinflarga qabul qilinadigan maktablar* shkalasi ishlab chiqildi. Shkalada ko'rsatib o'tilgan ko'nikmalar o'quvchilarning alifbodagi harflarni bilish darajasi, ayrim so'zlarni o'qiy olishi va alifbodagi harflarni yoza olishini o'z ichiga oladi. Shu tarzda, uydagi sharoitlar bilan bog'liq omillar ruknida tasvirlanganidek, ota-onalardan ham *Umumiy o'rta-ta'lim maktablariga qabul qilinishidan avval ilk savodxonlik mashg'ulotlari* shkalasini to'ldirish orqali bolalarning birlamchi savodxonlik darajasi haqida ma'lumot berishlari so'raladi.

### O'qish mashg'ulotlariga zarur manbaalar

Yaratib berilgan yetarlicha ishlash sharoiti, qulayliklar va o'quv inventarlari maktablarda ko'ngildagidek ta'lim olish muhitini hosil qilishda muhim ahamiyatga ega.[40] O'quv materiallariga nisbatan "yetarlicha" terminini qo'llash noo'rin bo'lishi mumkin, ammo maktabdagi o'quv manbalarining hajmi va sifati, sifatli ta'lim olishning garovi ekanini ko'rsatmoqda.[41,42,43,44] Maktablarda ta'lim jarayonini tashkil qilishda maktabning ichki imkoniyatlariga ta'sir ko'rsatadigan kamchiliklar borasidagi maktab direktorlari tomonidan bildirilgan fikrlarga ko'ra, 2001-yildan beri o'tkazib kelinayotgan PIRLS xaqlaro tadqiqoti natijalari yetarlicha o'quv inventariga ega bo'lmagan maktab o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari yetarli o'quv qurollari bilan ta'minlangan maktab o'quvchilarinikidan past ekanini ko'rsatadi. PIRLS 2001 tadqiqotida maktab o'quv inventarlari, maktab o'quv binolari va o'quv sinflarining yetarli darajada bo'lishi kabi maktabning umumiy imkoniyatlari haqida ma'lumotlar to'planib kelinmoqda. Keyingi sikllarda PIRLS tadqiqotida ham kutubxona darsliklari hamda tadqiqotga oid o'quv ta'minotlar/vositalar kabi o'quv jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan muayyan kamchiliklar haqida ham ma'lumotlar to'plandi. Maktab direktorlarining o'quv resurslarining yetishmovchiligi haqida bergan bayonotlari *o'quv resurslari yetishmovchiligining o'quv jarayoniga ta'siri* shkalasida umumlashtirildi.

Maktab resurslari o'quvchilarning o'rganishlari uchun kerakli bo'lgan kompyuter yoki planshet kabilarni ham o'z ichiga oladi. PIRLS tadqiqoti doimiy ravishda maktablardagi mavjud kompyuterlarning o'quvchilar soniga nisbatini aniqlaydi. 2016-yilda o'tkazilgan PIRLS tadqiqotida

kompyuter bilan to‘liq ta’minlangan maktab o‘quvchilarining kompyuter yetishmaydigan maktab o‘quvchilariga qaraganda yuqoriroq o‘zlashtirish ko‘rsatkichiga ega ekanligini aniqlangan.

### Maktab kutubxonasi yoki multimedia markazi

O‘quvchilarning ta’lim olishlari uchun mavjud o‘quv materiallarining boyligi va rang-barangligi ularning maktabda yaxshi ta’lim olishlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Resurslarga boy kutubxona yoki multimedia markazlariga ega maktablar o‘quvchilarning ta’lim olishlari uchun katta imkoniyatlar yaratishi mumkin. Izlanishlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar o‘zlarini qiziqtirgan kitoblarni topa olsagina kutubxonadan foydalanadi, shuning uchun har bir sinfda tahsil olayotgan o‘quvchilar uchun qiziqarli turdagi kitoblarning mavjudligi ularning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarining yuqori bo‘lishiga yordam beradi.[45] 2001-yildan beri PIRLS tadqiqoti maktab direktorlaridan maktablarda kutubxonalarning mavjudligi va kutubxonalarda mavjud kitoblar soniga oid savollar tuzish orqali maktab kutubxonalari haqida ma’lumotlar to‘playdi. Kutubxonalar ham multimedia markazlariga aylantirilayotgani bois, o‘quvchilar ham u yerdan o‘zlarini qiziqtirgan mavzuga doir elektron kitoblar, raqamli davriy jurnallar va onlayn resurslarni olib o‘qishlari mumkin. 2016-yilda PIRLS xalqaro tadqiqoti maktablarda raqamli o‘quv materiallarining mavjudligiga oid ma’lumotlarni to‘play boshladi.

Sinfxonasida o‘qish yo‘riqnomasi rukni ostida muhokama qilinganidek, ko‘pgina mamlakatlar o‘z maktab kutubxonalariga ega ekanligi bois, endilikda ular sinfxona kutubxonalarni ham tashkil qilishni yo‘lga qo‘ymoqda.

### Maktab direktorlarining ilmiy darajasi

Maktab direktorlari maktabda yaratilinadigan muhit, o‘quvchilar va maktab ishchi-xodimlarini nazorat qiluvchi yetakchilar hisoblanadi. Tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, maktab direktorining kuchli boshqaruvchilik qobiliyati o‘qituvchilar o‘rtasida mustahkam ishonch va ijobiy maktab muhitini yaratish orqali umumiy samaradorlikka erishish yordamida o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini yuqori bo‘lishiga erishiladi. [46,47] Maktab direktorlarining maktabda tutgan ahamiyati, yuqori malakali va yaxshi tayyorgarlikdan o‘tgan direktorlarga bo‘lgan talabdan kelib chiqib, PIRLS 2016 tadqiqotida maktab direktorligiga qo‘yiladigan talablar, direktorlarning ilmiy salohiyati hamda ilmiy yetakchilik qilishda yuqori darajadagi oily ta’lim va malakalarga ega ekanligi haqida ma’lumotlar to‘plandi.

### Maktab direktorlarining uzoq yillik tajribasi

Direktorlarning ish tajribalari ularning yuqori saviyada yetakchilik qilishlariga turtki bo‘ladi. PIRLS 2016 xalqaro tadqiqotida maktab direktorlaridan necha yil mobaynida ushbu lavozimda faoliyat ko‘rsatib kelayotganliklari haqida savollar berila boshlandi. Kasbiy faoliyatdagi keskin o‘zgarish o‘quvchilarning o‘zlashtirishlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi bois,[48,49] direktorlardan ham ular o‘zlari faoliyat ko‘rsatib kelayotgan maktabda necha yildan beri ishlab kelayotgani so‘raladi.

### Maktablarning hajmi va joylashuvi

PIRLS tadqiqoti maktablarning hajmi va ularning jo‘g‘rofiy joylashuvi haqida ma’lumotlar berib boradi, chunki mazkur xususiyatlar o‘quvchilarning ta’lim olishlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Maktablar o‘quvchilarning qamrab olishi va turli jo‘g‘rofiy hududlarda joylashishi bilan (masalan, shahar maktablari, shahardan tashqarida joylashgan maktablar, chekka hududlarda joylashgan maktablar kabi) bir-biridan farqlanadi. Kichik hajmdagi maktablarning afzalligi shundan iboratki, ular malakali ishchi-xodimlar, o‘quvchilar orasidagi ijtimoiy munosabatlar va alohida tartibdagi o‘qitish usullarini joriy etish yordamida o‘quvchilarni ko‘proq qo‘llab-quvvatlash orqali yaqindan o‘qitish muhitini yaratadi.[50] Shunday bo‘lsada, kichik hajmdagi maktablarda ham kutubxonalarning, laboratoriyalarning yetishmovchiligi kabi kamchiliklardan xoli bo‘lmasligi mumkin. Har bir mamlakatning o‘ziga xos imkoniyatidan kelib chiqib, shahar maktablarida chekka hududda joylashgan maktablarga qaraganda ko‘proq o‘quv resurslari mavjud bo‘lishi mumkin (masalan, muzeylar, kutubxonalar, kitob do‘konlari).

## Maktab sharoiti

### Farzandlari qatnaydigan maktablar haqida ota-onalarning tasavvurlari

2001-yildan beri PIRLS tadqiqoti ota-onalardan o‘z farzandlari qatnaydigan maktablar haqidagi tasavvurlari haqida ham ma’lumotlar to‘playdi. 2016-yilda PIRLS tadqiqoti *farzandlari qatnaydigan maktablar haqida ota-onalarning tasavvurlari* shkalasini ishlab chiqdi.Ushbu shkalada o‘quvchilarning ota-onalari yoki ularning vasiylari maktabning o‘qitish salohiyati, xavfsizligi hamda maktab tomonidan o‘quvchilarning ta’lim olishiga olib borilayotgan sayi-harakatlardan qanchalik mamnunlik darajasini umulashtiradi. 2016-yilda olib borilgan so‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatadiki, ko‘pgina ota-onalar o‘z farzandlari qatnaydigan maktablardan qoniqishini ta’kidlagan bo‘lib, bu boshqa ta’lim muassasalarida olib borilgan tadqiqotlar natijasi bilan mos keladi.[51, 52]

### Ta’limda muvaffaqiyatlarga erishishda maktabning tutgan o‘rni

O‘quvchilarning yuqori o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari uchun maktabda yaratib berilgan sharoit maktabning ham yutug‘i hisoblanadi. Izlanishlar natijasiga ko‘ra, o‘quvchilarning yuqori o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarni ko‘rsatishida maktabning tutgan o‘rni va o‘quvchilarning o‘qib o‘zlashtirishlari o‘rtasida ijobiy bog‘lanish borligi isbotlangan.[53,54] O‘qitish jarayonining ahamiyati, o‘qitish jarayonini tashkil etishda birgalikdagi samaradorlik (hamkorlik, ishlash), maktab ishchi-xodimlari, ota-onalar va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch maktabda ijobiy o‘quv jarayonini yaratishda xizmat qiladigan omil hisoblanib, bu omillar, o‘z navbatida, ijobiy o‘quv muhitini hosil qiladi.[55,56,57] PIRLS 2011 xalqaro tadqiqoti o‘tkazilganidan buyon, *ta’limda muvaffaqiyatlarga erishishda maktabning tutgan o‘rni* shkalasida maktab direktorlari va o‘qituvchilardan o‘qituvchilarning, ota-onalarning va o‘quvchilarning maktabga bo‘lgan munosabati va ularning ta’limda muvaffaqiyatlarga erishish uchun qanday hissa qo‘shishlari mumkinligi haqida so‘raladi. 2016-yilda PIRLS xalqaro tadqiqoti loyiha tuzilmasini yanada takomillashtirish uchun ko‘proq savollarni qo‘shish orqali shkala ko‘lamini kengaytirdi va direktorlar va ota-onalardan o‘quvchilar yaxshiroq o‘zlashtiradigan boshqa o‘quvchilar bilan hurmat qilish darajasi va ota-onalarning o‘quvchilar ijobiy natijalarga erishishlariga bo‘lgan ishonchlari haqida so‘raldi.

### O‘qituvchilarning o‘z kasbidan qoniqishi

Ijobiy ishlash muhiti orqali o‘qituvchining o‘z kasbidan qoniqishini qo‘llab-quvvatlash maktablarda yuqori malakali o‘qituvchilarni saqlab qolishning garovi hisoblanadi.[58] Birgalikda ishlash

va qo‘llab-quvvatlash hamda ijobiy maktab muhiti va kuchli yetakchilik mahorati kabi ijtimoiy omillar o‘qituvchilarning o‘z kasbidan qoniqishi va ularni ish joylarida saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega. [59,60,61] Bunga qarama-qarshi o‘laroq, ishda ro‘y beradigan ruhiy zo‘riqishlardan charchash esa o‘qituvchining o‘z kasbidan qoniqish hosil qilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.[62] PIRLS tadqiqoti doirasida 2006-yil o‘qituvchining o‘z kasbidan qoniqishiga oid ma’lumotlar to‘plandi va 2016-yil PIRLS tadqiqotining *o‘qituvchining o‘z kasbidan qoniqishi* shkalasi ishlab chiqildi.

### O‘quvchilarning maktabga tegishlilik hissi

O‘quvchilarning maktabga tegishlilik hissi, shuningdek, maktabga aloqadorlik hissi deb ham ataladi, ularning umumiy hotirjam ta’lim olishiga ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. [63,64] Maktabga tegishlilik hissi yuqori bo‘lgan o‘quvchilar o‘zlarini maktabda xavfsiz his qiladi, maktabdan rohatlanadi va o‘qituvchilar bilan yaxshi munosabatda bo‘ladi. 2016-yil PIRLS tadqiqotida *o‘quvchilarning maktabga tegishlilik hissi* shkalasi ishlab chiqildi va unda o‘quvchilardan maktabda bo‘lishini yoqtirish yoki yoqtirmaslillari, o‘zlarini qay darajada maktabga aloqador ekanlillari va o‘qituvchilarning ularga nisbatan adolatli munosabatda bo‘lishilari yoki bo‘lmasliklari haqida so‘raldi. 2016-yilda olib borilgan tadqiqotlar natijasi va bu sohada olib borilgan boshqa tadqiqotlar natijasi o‘quvchilarning maktabga tegishlilik hissi va ularning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari o‘rtasida bog‘liqlik mavjud ekanligini ko‘rsatdi.[65,66,67] PIRLS 2021 tadqiqotida o‘quvchilarning maktabga tegishlilik hissi ularning maktab jamoasi bilan ijobiy munosabat o‘rnatishida muhim ahamiyatini kasb etganligi sabab maktabda ularni do‘stlari bor yoki yo‘q ekani haqidagi savol ham shkalaga kiritildi. [68,69]

## Maktabda joriy etilgan tartiblar va xavfsizlik

### Maktabda joriy etilgan tartiblar

Muayyan ichki salbiy qoidalar o‘rnatilgan maktabda bezorilik, sinf xonasidagi to‘polon va darslardan qochish kabi muammolar uchrab turadi. Salbiy ichki tartib yoki qoidalardan holilik yo‘qligi hamda o‘quvchi yoki o‘qituvchining xavfsizligi to‘liq ta’minlangan qulay maktab muhitida yuzaga keladigan xavfsizlik hissi o‘quvchilarning o‘rganish jarayonlari uchun muhimdir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ma’lum qoidalar o‘rnatilgan va joriy etilgan maktablarda yuqori darajadagi tartib va xavfsizlik muhiti hukm suradi. [70,71] Avvalgi PIRLS baholash dasturlarida hech qanday tartib bilan bog‘liq muammolar bo‘lmagan maktab o‘quvchilari muammoli maktab o‘quvchilariga qaraganda yuqoriroq o‘zlashtirish ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan. 2001-yildan beri PIRLS tadqiqoti maktabda o‘rnatilgan “ichki” tartiblar haqida ma’lumotlar to‘pladi va buning natijasi o‘laroq 2011-yilda *maktabda joriy etilgan tartiblar* shkalasi ishlab chiqildi. Ushbu shkalada o‘quvchilarni qo‘rqitib qo‘yishdan yoki og‘zaki haqorat qilishdan tortib o‘quvchilar orasidagi aldash holatlarigacha bo‘lgan hulq-atvor masalalari asosida yuzaga kelgan maktab tartibi haqida direktorlar tomonidan berilgan mulohazalar umumlashtirildi.

### Xavfsiz va tartibli maktab

2011-yil o‘tkazilgan PIRLS hamda TIMSS tadqiqotlari natijalarining tahlillariga ko‘ra samaradorligi ustida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktabdagi xavfsizlik ko‘p

mamlakatlarda o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.[72] Har bir o‘quvchi va o‘qituvchilarning hurmat qilinishi, xafvsiz va tartibli muhit, maktab mutasaddilari o‘rtasidagi o‘zaro konstruktiv munosabat, o‘qituvchilar, ota-onalar va o‘quvchilar ijobiy maktab muhitini yaratishga xizmat qiladi va o‘quvchilarning yuqori o‘zlashtirish ko‘rsatkichlar ko‘rsatishga imkon yaratadi. [73,74,75] Direktorlar tomonidan to‘ldiriladigan *maktabda joriy etilgan tartiblar* shkalasi bilan birgalikda o‘qituvchilar tomonidan to‘ldiriladigan *xavfsiz va tartibli maktab* shkalasida xavfsiz maktablar haqida ma’lumotlar to‘planadi. O‘qituvchilardan maktabning xavfsizligi, ularning maktabda o‘zlarini xavfsiz sezishlari hamda maktabda o‘rnatilgan tartiblar adolatli yoki adolatli emasligi borasida bildirilgan turli mulohazalarga nisbatan munosabatlari so‘raladi.

### Bezorilik

Bezorilik biror kishini ham jismonan ham ruhan tahqirlash yoki qo‘rqitishga qaratilgan takroriy tajavuzkorona hatti-harakat hisoblanadi. Bezorilik insonning ruhan tushkunlikka tushib qolishiga sabab bo‘ladi, o‘ziga bo‘lgan ishonchni yo‘qolishiga olib keladi va insonni go‘yoki o‘zini keraksizdek his qilishiga majbur qiladi. [76,77,78] Avvalgi PIRLS tadqiqotlari natijasi va bu sohada olib borilgan boshqa izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, bezorilik qurboni bo‘lgan o‘quvchilar past o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini ko‘rsatishga moyil bo‘ladi.[79,80,81]

PIRLS tadqiqoti 2001-yilda o‘quvchilarning tahqirlanishiga oid ma’lumotlarni to‘play boshladi. O‘quvchilarning masxaralanishi holatlaridan tortib ularga nisbatan jismoniy kuch ishlatish holatlarigacha bo‘lgan turli darajadagi bezorilik ko‘rinishlari haqida o‘quvchilar tomonidan berilgan ma’lumotlar asosida 2011-yilda o‘quvchilarning tahqirlanishi shkalasini ishlab chiqildi. Internet yordamida va elektron vositalar yordamida qo‘rqitish (kiberbezorilik) holatlarini avj olishi bilan *o‘quvchilarning bezorilik qilish* shkalasi 2016-yilga qadar uzaytirildi. Kiberbezorilik shaklidagi hatti-harakatlarga insonni haqoratlovchi yoki yoqimsiz kayfiyatdagi xabarlar yoki onlayn tarzda tarqatiladigan ma’lumotlar kiradi. Bezorilikning boshqa ko‘rinishlari kabi kiberbezorilik ham o‘quvchilarning o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarini yo‘qolishiga, ruhan iztirob chekishiga va yomon o‘zlashtirishiga olib keluvchi omillardan hisoblanadi. [82,83]

## Maktabning o‘qish mashg‘ulotlariga urg‘u berishi

### O‘qish qobiliyatlari va strategiyalariga boshlang‘ich sinflardan berilgan e’tibor

Davlat va maktab miqyosida olib boriladigan islohotlar o‘quv dasturlarini belgilab beradi. Davlat miqyosida tuzilgan o‘quv dasturlarining maktablarda joriy etilish ko‘lami maktabda tuzilgan o‘quv tadqiqotida o‘z aksini topadi. PIRLS tadqiqotining har bir baholash siklida maktab direktorlaridan maktablarning boshlang‘ich sinflarida o‘qitiladigan o‘qish fanidan tuzilgan o‘quv dasturlari hamda maktabda muayyan o‘qish ko‘nikmasi va strategiyasini hosil qilishda nimalarga e’tibor qaratilgani haqida ma’lumotlar so‘raladi. Mazkur ko‘nikmalar o‘quvchilarning alifbo harflarini bilishidan tortib matn muallifining dunyoqarashi yoki maqsadini aniqlash kabi murakkabroq ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi.

### Til va o‘qish mashg‘ulotlari uchun vaqt ajratish

O‘qituvchilar o‘quvchilarga o‘quv tadqiqotini o‘qitishi uchun talab etiladigan vaqt me’yorlari o‘quv tadqiqotini joriy etishning asosiy omili hisoblanadi. PIRLS tadqiqoti natijalari shuni ko‘rsatadiki, har bir ishtirokchi mamlakatlarda o‘quv yuklamasida belgilab qo‘yilgan o‘quv soatlari hamda bu o‘quv yuklamalarini joriy etish vaqti bir-birdan farq qiladi. Izlanishlar natijasi o‘quv saotlari va o‘quvchining o‘zlashtirishi o‘rtasida bog‘liqlik mavjud ekanini ko‘rsatadi [84]. Binobarin, bu bog‘liqlik mazkur o‘quv soatlaridan qay darajada samarali foydalanilishiga ham bog‘liq bo‘lishi mumkin.[85] 2001-yildan beri PIRLS tadqiqoti o‘qituvchilardan o‘quv yuklamasining tuzilishida o‘quv mashg‘ulotlari uchun ajratilgan soat haqida, 2006-yilda esa til o‘qitilishiga oid ma’lumotlar to‘plana boshlandi. Bunga qo‘shimcha tarzda, maktabdagi o‘qish uchun ajratilgan soat va til o‘qitish va o‘qish fanidan tuzilgan o‘quv yuklamasida belgilab qo‘yilgan o‘quv soatlari haqida, mos ravishda, direktorlar va PIRLS xalqaro tadqiqotining milliy tadqiqot koordinatorlari tomonidan aniqlanadi.

## Sinfxona muhiti

Sinfxona ta’lim jarayoni olib boriladigan asosiy joy hisoblangani bois, PIRLS 2021 xalqaro tadqiqoti boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘qishni o‘rgatishga oid sinfxonasi bilan bog‘liq omillarga alohida e’tibor qaratiladi. Bularga o‘quvchining darslarga jalb etilganligi, o‘quvchilarning tushunish ko‘nikmasini hosil qilish uchun qaratilgan o‘qitish uslubiyati, beriladigan matn turlari, o‘qitishning tashkillashtirilishi, sinfxonasi kutubxonasidagi mavjud resurslar va sinfxonasida beriladigan topshiriqlar kiradi. Raqamli PIRLS tadqiqotining joriy etilishi bilan PIRLS 2021 tadqiqotida sinf xonasida mavjud bo‘lgan texnik vositalar, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish fanini o‘qitishda kerakli bo‘lgan raqamli qurilmalarning mavjudligi (jumladan, kompyuterlar, noutbuklar yoki planshetlar), texnik vositalardan foydalanish, onlayn o‘qish jarayonini tashkillashtirilishi kabilar haqida ma’lumotlar to‘planadi. PIRLS 2021 tadqiqotida o‘qituvchining tayyorgarligi, kasbiy mahorati va tajribasi haqida ham ma’lumotlar to‘planadi.

### Sinfxonasida o‘qish mashg‘ulotlari

### O‘quvchilarning o‘qish mashg‘ulotlariga jalb etilishi

O‘quvchilarning dars jarayonlariga jalb etilishi ularning dars mavzusini “aynan o‘sha vaqtda” aqlan keng tushunish jarayonidan iboratdir. [86] O‘quvchilarning dars jarayonlariga jalb etilishi o‘qituvchi tomonidan beriladigan ko‘rsatmalar, sinfdagi boshqa o‘quvchilar bilan matnning muhokama etilishi yoki mustaqil o‘qish yordamida amalga oshiriladi. Bunda, o‘qituvchining mas’uliyati o‘quvchini dars mavzusiga bo‘lgan qiziqishini oshiradigan samarali o‘qitish usullaridan foydalanish hisoblanadi. O‘quvchilarni darslarga jalb etishga sinfxonasi yaratilgan imkoniyatlarga aqliy faollik, aniq va yaxshi tashkillashtirilgan ko‘rsatma, o‘qituvchining o‘quvchilar tomonidan bildirilgan fikrini qo‘llab-quvvatlashi hamda o‘quvchilarning ehtiyoji va qiziqishlaridan kelib chiqib moslashtirilgan o‘qitish metodikasi kiradi. [87,88] O‘quvchilarni darslarga jalb etilishini ta’minlashda, dars mazmunini ravon va tushunarli tarzda tushuntirishda va o‘quvchilarni mavzuni to‘liq tushunishlariga rag‘batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. [89,90,91] Bundan tashqari, o‘qish fanidan berilgan mavzuni yoqtiradigan

o‘quvchilar darslar mobaynida faol ishirok etadilar.

PIRLS tadqiqoti 2011-yilda o‘quvchilarning *o‘quvchilarning o‘qish mashg‘ulotlariga jalb etilishi* shkalasini ishlab chiqdi. Bu shkalaga o‘qituvchining mavzuni oson tarzda tushuntirishi, darsda aniq maqsad qo‘yilganligi, o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘qishlari uchun qiziqarli materiallarni berishi, o‘quvchining darsda erkinligini ta’minlanishi hamda o‘qituvchining o‘quvchilarga o‘rganishlari uchun yordamlashishi va ularning matnni o‘qib tushunish ko‘nikmasini oshirishi kabilarni o‘z ichiga oladi.

### O‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmasi va strategiyasini o‘qituvchilar tomonidan rivojlantirilishi

Ravon o‘qish ko‘nikmasi yuqori darajadagi ravon o‘qish ko‘nikmasini namoyon etish orqali o‘qib tushunishda yuqori o‘zlashtirish ko‘rsatkichini ko‘rsatgan o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmasi bilan bog‘liq ekani isbotlangan. [92] PIRLS xalqaro tadqiqotida o‘qituvchilarning o‘quvchilarga ravon o‘qish ko‘nikmasini rivojlantirishda turli usulda yordam berishi va o‘qituvchilarni o‘quvchilardan ovoz chiqarib va ovoz chiqarmasdan o‘qishiga e’tibor qaratishi haqidagi ma’lumotlar to‘planadi.

Shuningdek, turli tushunish ko‘nikmasi va strategiyasini rivojlantiradigan va ulardan foydalanadigan o‘quvchilar o‘zlari o‘qiyotgan matnni yaxshiroq tushunadi.[93] PIRLS tadqiqotining birinchi sikli o‘tkazilganidan beri o‘qituvchi so‘rovnomasi yordamida o‘quvchilarga taxmin qilish, matnning asosiy g‘oyasini aniqlash bilan birgalikda o‘quvchilarga o‘rgatilgan turli o‘qib tushunish ko‘nikmasi va strategiyalari haqida ma’lumotlar to‘planadi. Dasturning keyingi sikllarda o‘quvchilarning o‘qib tushunishlari uchun muhim bo‘lgan ko‘nikmalar va strategiyalarni, jumladan, muallifning maqsadi va o‘quvchining o‘qish ko‘nikmasini o‘zi nazorat qila olishini o‘zida aks etgan qo‘shimcha savollar kiritildi.

### O‘qituvchilar o‘quvchilarni o‘qish borasida ruhlantiradi va rag‘batlantiradi

O‘quvchini yoshligidan o‘qishga rag‘batlantirilishi o‘qish fanidan dars beradigan o‘qituvchilar uchun muhimdir, chunki o‘qish uchun rag‘batlantiriladigan o‘quvchilar yaxshi o‘qish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. [94] Insonning o‘z ichki imkoniyatlarini aniqlash nazariyasiga [95] ko‘ra, rag‘batlantirish jarayoni o‘quvchida mavjud bo‘lgan tegishlilik, raqobatlashish va erkinlik hissini rivojlantirish, qulay muhit yaratib berish orqali o‘quvchilar rag‘batlantirilishi mumkin. Haddan ziyod nazorat qilinadigan sinf muhiti o‘quvchini rag‘batlantiruvchi kuchga to‘sqinlik qilishi mumkin, chunki u o‘quvchidan erkinlik hissini tortib oladi. [96] O‘qituvchilarning o‘quvchilarni erkin o‘qish ko‘nikmasini hosil qilish usullaridan biri o‘quvchilarga o‘zlarini qiziqtirgan matnlarni berishdan iborat. [97] Bundan tashqari, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida o‘rnatilgan munosabat o‘quvchini rag‘batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. [98] PIRLS tadqiqotida o‘qituvchilardan o‘quvchilarni rag‘batlantirish uchun turli mashg‘ulotlarni berib borishlari, ularga o‘zlari tanlagan matn yoki materialni o‘qish uchun ajratilgan vaqt hamda o‘quvchilarga matnlarni muhokama qilishlari uchun rag‘batlantirish haqida so‘raladi.

### Belgilangan matn turlari

O‘quvchilarga o‘qituvchilar tomonidan berilgan o‘qish materiallari ularni maktabda o‘qish ko‘nikmasini shakllantirishga yordamlashadi. Internetdagi ma’lumotlarni o‘qish imkoniyatini oshib borishi o‘quvchilarga turli shakldagi axborot beruvchi matnlarni tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish

uchun turtki bo‘ldi. Badiiy matnlar ham hikoyada berilgan qahramonlarning shaxsiy xislatlarining yoritilishi va matn yuzasidan bashorat qilish yoki u ustida mulohaza yuritishda o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga chorlashi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.[99] PIRLS tadqiqoti doirasida o‘quvchining axborot beruvchi va badiiy matnlarni o‘qib tushunish darajasini baholagani bois, o‘qituvchilardan o‘quvchilarga o‘qib tushunishlari uchun axborot beruvchi va badiiy matnlar berib borilishi yoki borilmasligi haqida so‘raladi.

## O‘quvchilarni o‘qish mashg‘ulotlariga yo‘naltirish

O‘qituvchilar o‘quvchilarga o‘zlarining o‘qish ko‘nikmasi samaradorligini oshirish maqsadida turli guruhlarda ishlash (guruh-guruh bo‘lib ishlash) usullaridan foydalanadi. Umuman olganda, kichik guruhlarda olib boriladigan mashg‘ulotlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish ko‘nikmasini yaxshilashi mumkin. [100,101] Masalan, kichik guruhlarda olib boriladigan mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan yondashuv, ko‘ra, o‘qituvchilar o‘quvchilarning umumiy o‘qish qobiliyatiga ko‘ra alohida ko‘nikma yoki strategiyani rivojlantirish maqsadida sinfdagi o‘quvchilarni kichik-kichik guruhlarga ajratadi. Bu turdagi kichik guruhlarga ajratish usuli har bir o‘quvchining qiziqishini e’tiborga olgan holda ular bilan ishlash imkonini beradi. O‘quvchilarni qobiliyatiga qarab guruhlarga ajratish esa ularning mavzu bo‘yicha alohida qobiliyatini namoyon etishda yordam beradigan o‘ziga xos guruhlash usulidir. Shunga qaramasdan, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, umumiy o‘rta-ta’lim maktablarida o‘quvchilarni o‘qish qobiliyatlariga ko‘ra alohida kichik-kichik guruhlarga ajratish o‘quvchini yuqori o‘zlashtirish ko‘rsatkichini ko‘rsatishiga yordam beradi, ammo bu o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchilar uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.[102,103] PIRLS o‘qituvchi so‘rovnomasida o‘quvchilarni guruhlarga ajratib o‘qitilishiga oid ma’lumotlar to‘planadi va o‘qituvchilardan o‘qish fanini butun guruhda olib boriladigan mashg‘ulot sifatida, kichik-kichik guruhlarda yoki o‘quvchilarning qobiliyatlariga ko‘ra yoki alohida tartibda o‘qitilishi haqida so‘raladi.

## Sinfxonalarida tashkil etilgan kutubxonalar

84 Hanushek, E.A., & Wößmann, L. (2017). School resources and student achievement: A review of cross-country economic research. In M. Rosén, K.Y. Hansen, & U. Wolff (Eds.), *Cognitive abilities and educational outcomes* (pp. 149–171). Methodology of Educational Measurement and Assessment. Switzerland: Springer International Publishing.

85 Mullis, I.V.S., Martin, M.O., & Loveless, T. (2016). *20 years of TIMSS: International trends in mathematics and science achievement, curriculum, and instruction*. Chestnut Hill, MA: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College.

86 McLaughlin, M., McGrath, D.J., Burian-Fitzgerald, M.A., Lanahan, L., Scotchmer, M., Enyeart, C., & Salganik, L. (2005, April). Student content engagement as a construct for the measurement of effective classroom instruction andteacher knowledge. Paper presented at the annual meeting of the American Educational Researchers Association, Montreal, Canada.

87 Klieme, E., Pauli, C., & Reusser, K. (2009). The Pythagoras study— Investigating effects of teaching and learning in Swiss and German mathematics classrooms. In T. Janik & T. Seidel (Eds.), *The power of video studies in investigating teaching and learning in the classroom.* (pp. 137–160). Münster: Waxmann.

88 Lipowsky, F., Rakoczy, K., Pauli, C., Drollinger-Vetter, B., Klieme, E., & Reusser, K. (2009). Quality of geometry instruction and its short-term impact on students' understanding of the Pythagorean Theorem. *Learning and Instruction*, *19*, 527–537.

89 Ferguson, R.F. (2012). Can student surveys measure teaching quality? *Phi Delta Kappan*, *94*(3), 24–28.

90 Nilsen, T., Gustafsson, J.-E., & Blömeke, S. (2016). Conceptual framework and methodology of this report. In T. Nilsen & J.-E. Gustafsson (Eds.), *Teacher quality, instructional quality and student outcomes* (pp. 1–19). Amsterdam, The Netherlands: IEA.

91 Scherer, R., & Nilsen, T. (2016). The relations among school climate, instructional quality, and achievement motivation in mathematics. In T. Nilsen & J.-E. Gustafsson (Eds.), *Teacher quality, instructional quality and studentoutcomes* (pp. 51–80). Amsterdam, The Netherlands: IEA.

92 Klauda, S.L. & Guthrie, J.T. (2008). Relationships of three components of reading fluency to reading comprehension. *Journal of Educational Psychology, 100*(2), 310–321.

93 Duke, N. K., & David Pearson, P. (2009). Effective Practices for Developing Reading Comprehension. *Journal of Education*, *189*(1–2), 107–122.

94 Lewis, M. & Samuels, S.J. (2003). *Read more—Read better? A meta-analysis of the literature on the relationship between exposure to reading and reading achievement.* Minneapolis, MN: University of Minnesota.

95 Deci, E.L. & Ryan, R.M. (1985). Intrinsic motivation and self-determination in human behavior. New York: PlenumPress.

96 Niemiec, C.P. & Ryan, R.M. (2009). Autonomy, competence, and relatedness in the classroom: Applying self-determination theory to educational practice. *Theory and Research in Education, 7*(2), 133–144.

97 Guthrie, J.T., McRae, A., & Klauda, S.L. (2007). Contributions of concept-oriented reading instruction to knowledgeabout interventions for motivations in reading. *Educational Psychologist, 42*(4), 237–250.

98 Cornelius-White, J. (2007). Learner-centered teacher-student relationships are effective: A meta-analysis. *Review of Educational Research, 77*(1), 113–143.

99 Alsup, J. (2015). A case for teaching literature in the secondary school: Why reading fiction matters in an age ofscientific objectivity and standardization. New York, NY: Routledge.

100 Lou, Y., Abrami, P.C., & Spence, J.C. (2000). Effects of within-class grouping on student achievement: An exploratory model. *The Journal of Educational Research*, *94*(2), 101–112.

101 Puzio, K. & Colby, G. (2010). *The effects of within class grouping on reading achievement: A meta-analytic synthesis.* Evanston, IL: Society for Research on Educational Effectiveness. Retrieved from ERIC database (ED514135).

102 Catsambis, S., & Buttaro, A. (2012). Revisiting "Kindergarten as academic boot camp": A nationwide study of ability grouping and psycho-social development. *Social Psychology of Education*, *15*(4), 483–515.

103 Lleras, C., & Rangel, C. (2009). Ability grouping practices in elementary school and African-American/Hispanic achievement. *American Journal of Education*, *115*(2), 279–304.

104Fractor, J.S., Woodruff, M.C., Martinez, M.G., & Teale, W.H. (1993). Let's not miss opportunities to promote voluntary reading: Classroom libraries in the elementary school. *The Reading Teacher, 46*(6), 476–484.

105 Duke, N.K., (2000). For the rich it's richer: Print experiences and environments offered to children in very low- andvery high-socioeconomic status first-grade classrooms. *American Educational Research Journal, 37*(2), 441–478.

106Hsu, H.-Y., Wang, S.-K., & Runco, L. (2013). Middle school science teachers' confidence and pedagogical practice of new literacies. *Journal of Science Education and Technology*, *22*(3), 314–324.

107 Ertmer, P.A., & Ottenbreit-Leftwich, A.T. (2010). Teacher technology change: How knowledge, confidence, beliefs, and culture intersect. *Journal of Research on Technology in Education, 42*(3), 255–284.

108Fraillon J., Ainley J., Schulz W., Friedman T., & Gebhardt, E. (2014). Teaching with and about information and communication technologies. In *Preparing for life in a digital age*. Springer, Cham.

109McKnight, K., O'Malley, K., Ruzic, R., Horsley, M.K., Franey., J.J., & Bassett, K. (2016). Teaching in a digital age: How educators use technology to improve student learning. *Journal of Research on Technology in Education*, *48*(3), 194–211.

110 Coiro, J. (2011). Predicting reading comprehension on the internet: Contributions of offline reading skills, onlinereading skills, and prior knowledge. *Journal of Literacy Research*, *43*(4), 352–392.

111 Coiro, J. (2012). The new literacies of online reading comprehension: Future directions. *The Educational Forum*,*76*(4), 412–417.

112 Leu, D.J., Zawilinski, L., Castek, J., Banerjee, M., Housand, B.C., Liu, Y., & O'Neil, M. (2007). What is new about the new literacies of online reading comprehension? In L.S. Rush, A.J. Eakle, & A. Berger (Eds.), *Secondary school literacy: What research reveals for classroom practice* (pp. 37–68). Urbana, IL: National Council of Teachers of English.

113 Baumert, J., Kunter, M., Blum, W., Brunner, M., Voss, T., Jordan, A., Klusmann, U., Krauss, S., Neubrand, M., & Tsai, Y-M. (2010). Teachers' mathematical knowledge, cognitive activation in the classroom, and student progress.*American Educational Research Journal, 47*(1), 133–180.

114 Lipowsky, F., Rakoczy, K., Pauli, C., Drollinger-Vetter, B., Klieme, E., & Reusser, K. (2009). Quality of geometry instruction and its short-term impact on students' understanding of the Pythagorean Theorem. *Learning and Instruction*, *19*, 527–537.

115 Scherer, R., & Nilsen, T. (2016). The relations among school climate, instructional quality, and achievement motivation in mathematics. In T. Nilsen & J.-E. Gustafsson (Eds.), *Teacher quality, instructional quality and studentoutcomes* (pp. 51–80). Amsterdam, The Netherlands: IEA.

116 Baumert, J., Kunter, M., Blum, W., Brunner, M., Voss, T., Jordan, A., Klusmann, U., Krauss, S., Neubrand, M., & Tsai, Y-M. (2010). Teachers' mathematical knowledge, cognitive activation in the classroom, and student progress.*American Educational Research Journal, 47*(1), 133–180.

117 Ferguson, R.F. (2012). Can student surveys measure teaching quality? *Phi Delta Kappan*, *94*(3), 24–28.

118 Darling-Hammond, L. (2000). How teacher education matters. *Journal of Teacher Education, 51*(3), 166–173. 119 Hill, H.C.,

Rowan, B., & Ball, D.L. (2005). Effects of teachers' mathematical knowledge for teaching on student achievement. *American Educational Research Journal, 42*(2), 371–406.

120 Myrberg, E., Johansson, S., & Rosén, M. (2018). The relation between teacher specialization and student reading achievement. *Scandinavian Journal of Educational Research*.

121 Harris, D.N., & Sass, T.R. (2011). Teacher training, teacher quality and student achievement. *Journal of PublicEconomics, 95*(7–8), 798–812.

122 Ladd, H.F., & Sorensen, L.C. (2017). Returns to teacher experience: Student achievement and motivation in middleschool. *Education Finance and Policy*, *12*(2), 241–279.

123 Papay, J.P., & Kraft, M. (2015). Productivity returns to experience in the teacher labor market: Methodologicalchallenges and new evidence on long-term career improvement. *Journal of Public Economics*, *130*, 105–119.

124 Harris, D.N., & Sass, T.R. (2011). Teacher training, teacher quality and student achievement. *Journal of Public Economics, 95*(7–8), 798–812.

125 Ladd, H.F., & Sorensen, L.C. (2017). Returns to teacher experience: Student achievement and motivation in middle school. *Education Finance and Policy*, *12*(2), 241–279.

126 Papay, J.P., & Kraft, M. (2015). Productivity returns to experience in the teacher labor market: Methodological challenges and new evidence on long-term career improvement. *Journal of Public Economics*, *130*, 105–119.

127 Coiro, J. (2012). The new literacies of online reading comprehension: Future directions. *The Educational Forum*,*76*(4), 412–417.

128 Capps, D.K., Crawford, B.A., & Constas, M.A. (2012). A review of empirical literature on inquiry professional development: Alignment with best practices and a critique of the findings. *Journal of Science Teacher Education,23*(3), 291–318.

129 Darling-Hammond, L., & McLaughlin, M.W. (2011). Policies that support professional development in an era of reform. *Phi Delta Kappan Magazine, 92*(6), 81–92.

130 Darling-Hammond, L., & McLaughlin, M.W. (2011). Policies that support professional development in an era of reform. *Phi Delta Kappan Magazine, 92*(6), 81–92.

131 De Naeghel, J., Van Keer, H., Vansteenkiste, M., & Rosseel, Y. (2012). The relation between elementary students' recreational and academic reading motivation, reading frequency, engagement, and comprehension: A self- determination theory perspective. *Journal of Educational Psychology*, *104*(4), 1006–1021.

132 Deci, E.L., & Ryan, R.M. (1985). Intrinsic motivation and self-determination in human behavior. New York: PlenumPress.

133 Becker, M., McElvany, N., & Kortenbruck, M. (2010). Intrinsic and extrinsic reading motivation as predictors ofreading literacy: A longitudinal study. *Journal of Educational Psychology*, *102*(4), 773–785.

134 Schiefele, U., Schaffner, E., Möller, J., & Wigfield, A. (2012). Dimensions of reading motivation and their relation toreading behavior and competence. *Reading Research Quarterly*, *47*(4), 427–463.

135 Marsh, H.W., & Craven, R.G. (2006). Reciprocal effects of self-concept and performance from a multidimensional perspective: Beyond seductive pleasure and unidimensional perspectives. *Perspectives on Psychological Science, 1*(2), 133–163.

136 Bandura, A. (1997). *Self-efficacy: The exercise of control.* New York: W.H. Freeman and Company.

137 Hatlevik, O. E., Throndsen, I., Loi, M., & Guðmundsdóttir, G.B. (2015). Students' ICT self-efficacy and computer and information literacy: Determinants and relationships. *Computers & Education*, *118*, 107–119.

138 Rohatgi, A., Scherer, R., & Hatlevik, O. (2016). The role of ICT self-efficacy for students' ICT use and theirachievement in a computer and information literacy test. *Computers & Education*, *102*, 103–116.

139 Van Deursen, A.J.A.M., Helsper, E.J., & Eynon, R. (2014). Measuring digital skills. From *Digital Skills to Tangible Outcomes Project Report*. Retrieved from http://www.lse.ac.uk/media-and-communications/assets/documents/research/projects/disto/Measuring-Digital-Skills.pdf

140Voyer, D., & Voyer, S.D. (2014). Gender differences in scholastic achievement: A meta-analysis, *Psychological Bulletin*, *140*(4), 1174–1204.

141 Duncan, G.J., & Magnuson, K. (2013). Investing in preschool programs. *Journal of Economic Perspectives*, *27*(2), 109– 132.

142 European Commission. (2018). Proposal for a council recommendation on high quality early childhood educationand care systems. Brussels.

143 Dearing, E., Zachrisson, H., Mykletun, A., & Toppelberg, C. (2018). Estimating the consequences of Norway's national scale-up of early childhood education and care (beginning in infancy) for early language skills. *AERA Open,4*(1).

144Broekhuizen, M.L., Mokrova, I.L., Burchinal, M.R., & Garrett-Peters, P.T. (2016). Classroom quality at pre- kindergarten and kindergarten and children's social skills and behavior problems. *Early Childhood ResearchQuarterly*, *36*, 212–222.

145 Duncan, G.J., & Magnuson, K. (2013). Investing in preschool programs. *Journal of Economic Perspectives*, *27*(2), 109– 132.

146Mashburn, A.J., Pianta, R.C., Hamre, B.K., Downer, J.T., Barbarin, O.A., Bryant, D., Burchinal M., Early D.M., & Howes, C. (2008). Measures of classroom quality in prekindergarten and children's development of academic,language, and social skills. *Child Development, 79*(3), 732–749.

147 Martin, M.O., Mullis, I.V.S., & Foy, P. (2011). Age distribution and reading achievement configurations among fourth-grade students in PIRLS 2006. *IERI Monograph Series: Issues and Methodologies in Large-scale Assessments, 4*, 9–33.

148García-Pérez, J., Hidalgo-Hidalgo, M., & Robles-Zurita, J.A. (2014). Does grade retention affect students' achievement? Some evidence from Spain. *Applied Economics*, *46*(12), 1372–1392.

149Hattie, J. (2009). Visible learning: A synthesis of over 800 meta-analyses relating to achievement. New York:Routledge.

150 Mullis, I.V.S., Martin, M.O., Goh, S., & Prendergast, C. (Eds.). (2017). *PIRLS 2016 encyclopedia: Education policy and curriculum in reading.* Retrieved from http://timssandpirls.bc.edu/pirls2016/encyclopedia/

151 Mejding, J., Neubert, K., & Larsen, R. (2017). Denmark. In I.V.S. Mullis, M.O. Martin, S. Goh, & C. Prendergast (Eds.), *PIRLS 2016 encyclopedia: Education policy and curriculum in reading.* Retrieved from http://timssandpirls.bc.edu/pirls2016/encyclopedia/

152 Wendt, H., Walzebug, A., Bos, W., Smith, D.S., & Bremerich-Vos, A. (2017). Germany. In I.V.S. Mullis, M.O. Martin, S. Goh, & C. Prendergast (Eds.), *PIRLS 2016 encyclopedia: Education policy and curriculum in reading.* Retrieved from http://timssandpirls.bc.edu/pirls2016/encyclopedia/

153 Mullis, I.V.S., Martin, M.O., Goh, S., & Prendergast, C. (Eds.). (2017). *PIRLS 2016 encyclopedia: Education policy and curriculum in reading*. Retrieved from http://timssandpirls.bc.edu/pirls2016/encyclopedia/

154 Torgesen, J. K. (1998). Catch them before they fall: Identification and assessment to prevent reading failure in young children. *American Educator,* (22) 32–39.

# 3-BOB

# PIRLS 2021 xalqaro tadqiqotida baholash mezonlari

Mixael O. Martin, Matthias von Davier, Pierre Foy va Ina V. S. Mullis

## Umumiy ma'lumot

PIRLS 2021 xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish darajasini baholaydigan keng qamrovli dastur hisoblanadi. Har bir tadqiqot avvalgi tadqiqotlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan hamda muntazam ravishda har besh yilda o'tkaziladigan PIRLS tadqiqotida umumiy o'zlashtirish shkalasi yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligida ro'y beradigan o'zgarishlar haqida muntazam ravishda ma'lumot to'planadi. PIRLS 2021 xalqaro tadqiqoti qog'oz shaklidan raqamli shakliga o'ta boshladi va ishirokchi mamlakatlarning qariyb yarmi tadqiqotning raqamli shaklidan, qolgan yarmi esa an'anaviy qog'oz shaklidan foydalanmoqda. Har ikka baholash shakllari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash uchun, raqamli va qog'oz shklidagi PIRLS dasturlarida o'qib tushunishga oid beriladigan matnlar va savollarning bir xilligiga e'tibor beriladi, ammo ePIRLS tadqiqotida qog'oz, an'anaviy shakldagi baholash jarayonida qo'llash mumkin bo'lmagan imkoniyatlar va topshiriq turlari mavjud. Raqamli PIRLS tadqiqotini tanlagan mamlakatlar ham PIRLS 2016 tadqiqotining bir qismi sifatida ilk marotaba o'tkazilgan, ma'lumotlarni qo'lga kiritish va ulardan foydalanish uchun onlayn materiallarni o'qib tushunish darajasini baholash tadqiqoti hisoblangan ePIRLS tadqiqotidan foydalanadi.

Avvalgi PIRLS dasturlari kabi PIRLS 2021 tadqiqotida ham o'quvchilarning matnni o'qib tushunish darajasini rivojlantishda jamiyat, uy va maktab bilan bog'liq omillar haqida ma'lumotlar to'planadi. Avvalgi baholash sikllarida orttirilgan tajribalar asosida shu narsa ma'lum bo'ldiki, o'quvchilarning matnni o'qib tushunish ko'nikmasini o'zlashtirish darajasi mamlakatlar ichida va mamlakatlar miqyosida turlicha bo'lishi mumkin va bu har bir ishtirokchi mamlakatda o'quvchilarning matnni o'qib tushunish qobiliyatini baholashda yuzaga keladigan murakkabliklarni (tafovutlarni) muvofiqlashtirish masalasini keltirib chiqaradi. Baholash jarayonlari o'quvchilar uchun juda qiyin yoki juda oson bo'lsa, ularning o'zlashtirish darajalarini yuqori aniqlikda baholashning imkoni bo'lmaydi. Mazkur muammoni hal etish maqsadida PIRLS 2011 xalqaro tadqiqotiga qadar o'tkazilgan tadqiqotilardan tortib 2016-yilda o'tkazilgan PIRLS o'quvchilar savodxonliklarini baholash tadqiqotigacha, avval o'tkazilgan PIRLS tadqiqotida ishtirokchi mamlakatlarning o'zlari tanlashi mumkin bo'lgan ancha soddalashtirilgan test materiallari taqdim etildi. Mazkur sa'y-harakatlar natijasida PIRLS xalqaro tadqiqoti tomonidan o'zlashtirish shkalasining quyida joylashgan o'quvchilar ham qamrab olindi, ammo PIRLS tadqiqotining alohida (lekin avvalgilari bilan mantiqan bog'langan) versiyasini ishlab chiqish talab etildi va yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchilar uchun murakkabroq materiallar tuzishga ehtiyoj qolmadi.

PIRLS 2021 xalqaro tadqiqoti keng turdagi murakkab savollarga bo'lgan ehtiyojlarni va qator

yangicha baholash mezonlariga asoslangan yagona baholash tartibini joriy etish orqali mazkur savollarni o‘quvchilarning qobiliyatlariga moslashtirilishini tadqiq etadi. Baholashning yangi tartibi ikki xil murakkablik darajasidagi baholash daftarini birlashtirish natijasida tuzilgan uch xil murakkablik darajasidagi – murakkab, o‘rtacha va oson – matnlarga asoslangan. Murakkabroq baholash daftari bitta o‘rtacha murakkablikdagi va bitta murakkab tuzilgan matnlardan, osonroq baholash daftari esa bitta oson va bitta o‘rtacha murakkablikdagi yoki ikkita oson matnlardan tashkil topgan. Har bir ishtirokchi mamlakat butun baholash jarayonini o‘zlari o‘tkazadi, ammo murakkab va oson baholash daftarlari o‘rtasidagi muvozanat mamalakatdagi o‘quvchilarning o‘qib o‘zlashtirish darajalariga bog‘liq o‘zgarishi mumkin. Masalan, o‘rtacha o‘qib o‘zlashtirish darajasiga ega mamlakat (o‘rtacha 550 yoki undan yuqori ball) o‘quvchilarning 70 foiziga murakkab baholash daftarlarini, qolgan 30 foiz o‘quvchilarga esa oson baholash daftarlarini berishi mumkin, vaholanki o‘quvchilarining o‘zlashtirish darajasi pastroq bo‘lgan mamlakatlar (o‘rtacha 450 yoki undan past ball) butun o‘quvchilar kontingentining 30 foiziga murakkab baholash daftarini va qolgan 70 foiziga esa osonroq baholash daftarlari berilishi mumkin.

Moslashtirilgan baholash tartibi nisbatan yuqori o‘zlashtirish ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan mamlakatlarda ko‘proq murakkab baholash daftarlarini tarqatish va nisbatan pastroq o‘zlashtirish ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan mamlakatlarda esa ko‘proq oson baholash daftarlarini tarqatish orqali har bir ishtirokchi mamlakat o‘quvchilarining qobiliyati va savollarning murakkablik darajasi o‘rtasidagi tafovutni muvofiqlashtiradi. Mos ravishda, yangicha baholash tartibi vaqt me’yorlari va mavjud tartiblariga imkoni boricha kam o‘zgartirishlar kiritgan holda baholash natijalarida ko‘proq ma’lumotlar qo‘lga kiritiladi.

Guruhlarga ajratilgan baholash tartibi savollarning murakkablik darajasi va mamlakatdagi o‘quvchilarning qobiliyati o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan bo‘lsada, agar ishtirokchi mamlakat o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichida sezilarli darajada farq qiladigan o‘quvchilar qo‘shimcha guruhlari aniqlansa, mazkur tartib mamlakat ichida ham joriy etilishi mumkin.

## Baholanadigan o‘quvchi kontingenti

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish savodxonligini baholaydi. Mazkur o‘quvchi kontingenti PIRLS xalqaro tadqiqoti uchun tanlab olinadi, chunki bu o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalariga ko‘ra rivojlanishlarida eng muhim o‘tish davri hisoblanadi. Odatda, ayni shu davrda o‘quvchilar asosiy o‘qib o‘rganish darajasiga ega bo‘lib, ular o‘rganish uchun o‘qiy boshlagan bo‘ladilar. Ko‘pgina mamlakatlarda bu o‘quvchilarni matematika va tabiiy fanlar kabi ayrim fanlarni o‘qitishda alohida guruhlarga ajratiladigan davrga mos keladi.

PIRLS tadqiqoti UNESCO tasarrufidagi Statistika instituti tomonidan ishlab chiqilgan *Ta’limning Xalqaro Me’yoriy Klassifikatsiyasi*ga (ISCED) ko‘ra boshlang‘ich ta’limning to‘rtinchi yilini qamrab oladi. ISCED klassifikatsiyasi barcha ishtirokchi mamlakatlarda maktab ta’limi darajalarini ko‘rsatib beruvchi xalqaro standartini taqdim etadi va boshlang‘ich maktabgacha ta’limdan (0-daraja) tortib doktorlik darajasigacha (8-daraja) bo‘lgan barcha turdagi maktab ta’limini qamrab oladi. ISCED bo‘yicha 1-daraja umumiy o‘rta-ta’limga yoki birlamchi ta’limning birinchi bosqichiga mos keladi va rasmiy maktab ta’limining birinchi bosqichi hisoblanadi.

PIRLS tadqiqotining tanlab olingan o‘quvchilar kontingenti quyidagicha tasniflanadi:

PIRLS xalqaro tadqiqotida ishtirok etuvchi toifa ISCED bosqichi 1-darajasining 1-o‘quv yilidan boshlab hisoblangan to‘rt yillik maktab ta’limini ifoda qiladi.

PIRLS xalqaro tadqiqotida ishtirok etuvchi toifa 1-daraja boshlagandan keyingi to‘rt yil bo‘lib, u ko‘p mamlakatlarda to‘rtinchi sinfga to‘g‘ri keladi. Shunga qaramasadan, o‘qib tushunish ko‘nikmasining tilga xos va kognitiv (aqliy) o‘ziga xosliklaridlan kelib chiqib, PIRLS tadqiqoti doirasida juda yosh bolagan bilimlari baholanmaydi. Shunday ekan, agar to‘rtinchi sinfda tahsil olayotgan o‘quvchilarning o‘rtacha yoshi 9,5 yosh bo‘lsa, PIRLS tadqiqoti keyingi sinfda tahsil olayotgan bolalarning (ya’ni beshinchi sinf o‘quvchilarining) bilimini baholashni tasviya etadi.

## O‘qib o‘zlashtirish darajalarining e’lon qilinishi

PIRLS tadqiqoti har bir ishtirokchi mamlakatlarda tadqitot jarayonida qatnashayotgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonlik darajasi haqida to‘liq tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Bu o‘quvchilarning o‘qishdan maqsadlari, keng tushunish jarayoni va ularning umumiy o‘qib o‘zlashtirishlarini o‘z ichiga oladi. O‘qib tushunish ko‘nikmasini tashkiliy tuzilishidan kelib chiqib, ham elektron shaklda o‘tkaziladigan ham qog‘oz shakldagi PIRLS 2021 tadqiqotida, teng yarmi o‘quvchilarning badiiy savodxonliklarini baholashga, qolgan yarmi esa ma’lumotlarni topib, ulardan foydalanish ko‘nikmasini baholashga qaratilgan 18 ta o‘qib tushunish uchun mo‘ljallangan matnlar va bu matnlar asosida tuzilgan savollardan (topshiriqlar deb nomalanadi) tashkil topgan. Guruhlarga ajratilib, moshlashtirilgan baholash mezoniga muvofiq, matnlarning uchdan biri nisbatan murakkab matnlar, uchdan biri o‘rtacha murakkablikdagi va qolgan uchdan biri nisbatan oson matnlardan tashkil topgan. An’anaviy qog‘oz shakldagi PIRLS tadqiqotini o‘tkazayotgan mamlakatlar o‘quvchilarning elektron shakldagi axborot beruvchi materiallarni o‘qib tushunishlariga mo‘ljallangan bir nechta topshiriqli ePIRLS tadqiqotini ham o‘tkazadi.

Tadqitot jarayonlarida yuzaga keladigan murakkablikni kamaytirish maqsadida har bir o‘quvchiga ikkita matn beriladi. Ulardan biri badiiy matn, boshqasi esa axborot beruvchi matn hisoblanadi. Raqamli PIRLS tadqiqotida ishtirok etadigan mamlakatlarda ayrim o‘quvchilarga ePIRLS materiallari beriladi. ePIRLS materiallari ikkita ePIRLS materiali yoki bitta raqamli PIRLS axborot beruvchi matn va bitta ePIRLS savolidan iborat bo‘ladi. PIRLS xalqaro tadqiqot jarayonlari ikkita 40 daqiqalik qismdan iborat bo‘lib, birinchi 40 daqiqa matnni o‘qib, u asosida berilgan vazifani bajarishga, ikkinchi 40 daqiqalik qism, so‘ngra esa 10 daqiqa qisqa tanaffus va 30 daqiqa o‘quvchi so‘rovnomasini bajarishga ajratiladi. Ma’lumotlar to‘plangandan so‘ng, baholash jarayonida har bir ishtirokchi mamlakatning qo‘lga kiritgan natijalari haqida umumiy tasavvur beruvchi savollarga javob berish nazariyasi metodlaridan foydalanib, o‘quvchi tomonidan matnlarga berilgan javoblar PIRLS o‘qib o‘zlashtirish shkalasiga joylashtiriladi.[2]

PIRLS xalqaro tadqiqoti avvaldanoq boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish darajasida yillar mobaynida yuzaga kelgan o‘zgarishlarni baholash uchun ishlab chiqilgan. Shunga muvofiq, PIRLS o‘qib o‘zlashtirish shkalasi ishtirokchi mamlakatlarga boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish darajasini har galgi baholash jarayoni o‘rtasidagi vaqt mobaynida qay darajada o‘zgarib borganini qiyoslashda umumiy mezon vazifasini o‘taydi. PIRLS

o‘zlashtirish shkalasi 2001-yilda ishlab chiqilgan bo‘lib, shkaladagi 100 ball 2001-yilda ishtirok etgan barcha mamlakatlar uchun bitta standart og‘ishga mos kelgan bo‘lib, shkalaning 500 balli markaziy nuqtasi o‘sha ishtirokchi mamlakatlar uchun xalqaro o‘rtalikka mos kelgan. Ikki turdagi baholash natijalarini birlashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qilgan 2001- va 2006-yilgi tadqitotlarda berilgan matnlardan foydalanib, PIRLS 2006 xalqaro tadqiqotida qo‘lga kiritilgan ma’lumotlar ham ayni shkalaga kiritilgan bo‘lib, bu ishtirokchi mamlakatlarga 2001-yildan beri boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish darajasi qanday o‘zgarishlar ro‘y berganini ko‘rish imkonini beradi. Ayni shu an’anani saqlab qolgan holda, PIRLS 2011 va PIRLS 2016 xaqaro dasturlaridan qo‘lga kiritilgan ma’lumotlar ham PIRLS shkalasiga kiritilib, bu an’ana PIRLS 2021 xalqaro tadqiqotida ham davom etishi rejalashtirilgan. Bu esa mazkur dastur boshlanishidan buyon qatnashib kelayotgan ishtirokchi mamlakatlarga 2001, 2006, 2011, 2016 va 2021 yillar mobaynida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish darajasida qo‘lga kiritilgan ma’lumotlarni qiyoslash va mana shu 20-yillik vaqt mobaynida yuzaga kelgan o‘zgarishlarni tahlil qilish imkoniyatini beradi.

PIRLS o‘qib o‘zlashtirish shkalasi o‘quvchilarning o‘qishdan maqsadlari va keng tushunish jarayonidan iborat o‘qish salohiyatini umumiy tarzda baholaydi. Shunga qaramay, umumiy shkalaga qo‘shimcha tarzda, PIRLS tadqiqoti o‘quvchilarning o‘qishdan maqsadlari va keng tushunish jarayonining ayni shu ko‘rsatkichida alohida o‘zlashtirish shkalasini ham taqdim etadi. Yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak, o‘quvchilarning o‘qishdan maqsadlarini baholovchi ikkita shkala mavjud:

- Badiiy savodxonlikni oshirish uchun o‘qish;
- Ma’lumot olish va undan foydalanish uchun o‘qish.

Bunga qo‘shimcha tarzda, keng tushunish jarayonini baholovchi ikkita shkala mavjud:

- Qidirish va to‘g‘ri xulosa chiqarish;
- Talqin qilish, umumlashtirish va baholash.*

Raqamli PIRLS tadqiqotida ishtirok etayotgan mamlakatlar ePIRLS tadqiqotini ham o‘tkazadi. Shuning uchun, an’anaviy PIRLS o‘qib o‘zlashtirish natijalari va o‘qishdan maqsad hamda keng tushunish jarayonidan olingan natijalarga qo‘shimcha tarzda, raqamli PIRLS tadqiqotida ishtirok etadigan mamlakatlarda o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari ham onlayn axborot beruvchi materiallarni o‘qish uchun sharxlanadi. ePIRLS onlayn materiallarni o‘qib o‘zlashtirish shkalasi 2016-yilda ishlab chiqilgan bo‘lib, bu ishtirokchi mamlakatlarga boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining PIRLS tadqiqoti doirasida joriy etilgan o‘qib o‘zlashtirish shkalasidagi natijalariga nisbatan matnni o‘qib tushunish darajasini tekshiradi.

## PIRLS 2021 xalqaro tadqiqotining moslashuvchan tuzilishi

PIRLS 2021 xalqaro tadqiqotining moslashuvchan tuzilshining joriy etilishi imtihon materiallari va savollarini uchta (oson, o‘rtacha va murakkab) murakkablik darajasi guruhlashni taqozo etdi. Mazkur savollarning uchtasi badiiy savodxonlikka oid savollardan, qolgan uchtasi esa axborot beruvchi matnlardan iborat. Baholash mezoni uchun tanlab olingan 18 ta matndan 12 tasi avvalgi PIRLS 2016 tadqiqotida berilgan bo‘lib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining manni o‘qib tushunish darajasidagi

o‘zgarishlarni tahlil qilish uchun xizmat qiladi va qolgan 6 tasi esa PIRLS 2021 xalqaro tadqiqoti doirasida ilk marotaba foydalanish uchun ishlab chiqildi va sinovdan o‘tkaziladi.

2016-yilda asosiy PIRLS tadqiqoti PIRLS o‘qish savodxonlik tadqiqoti bilan birga o‘tkazilib, hajmi va ko‘lamiga nisbatan PIRLS tadqiqotiga yaqinlashtirilgan baholash tadqiqoti edi, ammo bu dastur ancha oson bo‘lib, unda berilgan matnlar hajman qisqa va savollar nisbatan oson bo‘lgan edi. PIRLS va PIRLS savodxonlik dasturlarini birlashtirgan holda, faqat PIRLS tadqiqoti doirasida berilgan 8 ta matn (to‘rtta badiiy savodxonlik bo‘yicha, to‘rtta axborot beruvchi matnlar), PIRLS va PIRLS savodxonlik tadqiqotida tushgan to‘rtta umumiy matnlar (har bir yo‘nalish uchun ikkitadan matn) va faqat PIRLS savodxonlik tadqiqotida berilgan 8 ta matn (yana har bir yo‘nalish uchun to‘rttadan matn) berilgan edi. O‘tkazilishi rejalashtirilayotgan PIRLS 2021 xalqaro tadqiqoti uchun 12 dona trend matnlar saralab olinib, ular PIRLS tadqiqotidan olingan murakkab matnlardan, PIRLS va PIRLS savodxonlik tadqiqotidan olingan o‘rtacha murakkablikdagi matnlar (faqat bitta istisno bilan) va faqat PIRLS savodxonlik tadqiqotidan olingan oson matnlardan tashkil topgan.

**1-jadval: PIRLS tadqiqoti uchun tanlab olingan 18 ta matnlarning maqsadi va murakkablik darajasi**

**Matnlar**

| O‘qishdan ko‘zlangan maqsad | Qiyinlik darajasi | Matn yorlig‘i* | Matnning nomlanishi * |
|---|---|---|---|
| Badiiy | Qiyin | LitD1 (06) | Yaltiroq Somon (06) |
| | | LitD2 (16) | Oliver va griffin (16) |
| | | LitD3 (21) | Yangi LitD3 matni (21) |
| | O‘rta | LitM1 (16) | Pemba Sherpa (16) |
| | | LitM2 (21) | Yangi LitM2 matni (21) |
| | | LitM3 (11) | Bo‘sh gultuvak (11) |
| | Oson | LitE1 (21) | Yangi LitM2 matni (21) |
| | | LitE2 (11) | Otamning 10 yoshligidagi yoz fasli (11) |
| | | LitE3 (16) | Kutubxona sichqoni (16) |
| Axborot | Qiyin | InfD1 (11) | Asal qayerda? (11) |
| | | InfD2 (16) | Islandiya otlari (16) |
| | | IndD3 (21) | Yangi InfD3 matni (21) |
| | O‘rta | InfM1 (16) | Biz uchishni qanday o‘rgandik? (16) |
| | | InfM2 (21) | Yangi InfM2 matni (21) |
| | | InfM3 (06) | Akulalar (06) |
| | Oson | InfE1 (21) | Yangi InfE1 matni (21) |
| | | InfE2 (11) | Eshitmaydigan qutb ayig‘ini o‘rgatish (11) |
| | | InfE3 (16) | Och o‘simlik (16) |

* Qavs ichida berilgan raqam matndan ilk bor qo‘llanilgan yilni ko‘rsatadi.

1-jadvalda mavjud matnlarni o‘qishdan ko‘zlangan maqsad va murakkablik darajasiga ko‘ra qanday joylashuvi va yangi matnlar va savollar jadvalning qayeridan joy olishi ko‘rsatilgan. Oltita yangi

matnlardan uchtasi badiiy savodxonlikka oid matnlar, qolgan uchtasi esa axborot beruvchi matnlar hisoblanib, ularning har biri matnlarning murakkablik darajasi ustunidan joy olgan. Shuningdek, jadvaldagi har bir matn maxsus shifrlangan bo‘lib, ular baholash daftaridagi matnlarni baholanishini osonlashtiradi.

## Matnlarning murakkablik darajasi

Baholash mezonlari samarali ishlashi uchun alohida matn turkumiga mansub matnlarning o‘rtacha murakkabligi bir-biridan aniq ajralib turishi kerak. Masalan, o‘quvchilar kontingentidan kelib chiqib, berilgan o‘rtacha to‘g‘ri javobga nisbatan o‘rtacha murakkablik darajasi murakkab matnlar turkumi uchun 40 foiz, o‘rtacha murakkablikdagi matnlar turkumi uchun 60 foiz va oson matnlar turkumi uchun esa 40 foiz bo‘lishi kerak. PIRLS 2021 xalqaro tadqiqot uchun ishlab chiqilgan yangi matnlar mazkur murakkablik darajasi uchun mo‘ljallangan, ammo umumiy matnlarning uchdan ikki qismini tashkil etuvchi mavjud sohaviy matnlarga ko‘p ozgartirishlar kiritilmagan.

**2-jadval: 2016- va 2021- yilgi matnlarning o‘rtacha murakkablik darajasi (o‘rtacha to‘g‘ri berilgan javobga)**

| Matnning murakkablik darajasi | 2016-yildagi matnlarning murakkablik darajasi | 2021-yildagi matnlarning murakkablik darajasi |
|---|---|---|
| Qiyin | 55% | 50% |
| O‘rta | 68% | 65% |
| Oson | 80% | 80% |

2-jadvalda tasvirlanganidek, mavjud o‘rtacha va murakkab matnlarning (mos ravishda, 68% va 55%) murakkablik darajasi uzoq-muddatli ko‘rsatkichlardan, ayniqsa murakkab matnlar uchun, (mos ravishda, 60% va 40%) yuqoriroq ekanini ko‘rish mumkin. Shunga qaramasdan, taxminiy murakkablik darajasiga yaqinlashtirish uchun mavjud matnlarni yangi ishlab chiqilgan matnlar bilan birlashtirish orqali 2021-yilda mazkur uzoq-muddatli ko‘rsatkichlarga chiqish imkoniyati tug‘iladi. 2-jadvalda, 2021-yil uchun oraliq taxminiy murakkabliklarni ask ettirib, u taxminiy murakkablik darajasiga mavjud va yangi ishlab chiqilgan matnlarning qo‘shilishi natijasida erishish mumkin. PIRLS 2026 xalqaro tadqiqotida uzoq-muddatli ko‘rsatkichlarga erishish imkoniyati ko‘payadi.

## Baholash daftarining tuzilishi

PIRLS tadqiqotida har bir o‘quvchiga tasodifiy ravishda ikkita matn va ular asosida tuzilgan savollardan iborat (raqamli PIRLS tadqiqotidagi baholash daftariga tenglashtirilgan) baholash daftari beriladi. PIRLS 2021 tadqiqotida berilishi rejalashtirilgan 18 ta matn har birida ikkitadan matn bo‘lgan 18 ta baholash daftari bo‘lib, baholash daftarida ikkta matin bo‘ladi va matnlar boshqasi bilan aralashtirib beriladi. 3-jadvalda har bir baholash daftarida berilgan matnlar umumlashtirilgan. Yoy tomoni baholash daftaridagi qaysi matn birinchi kelishini ko‘rsatadi. Masalan, yoy ko‘rsatkichi InfM1 shifrli matndan LitD1 shifrli matnga qaratilgan, bu mazkur matnning birinchi kelishini ko‘rsatadi. Turli murakkablikka ega matnlar bitta baholash daftarida berilsa, ikkalasidan osonrog‘i birinchi keladi.

**3-jadval: Har bir baholash daftaridagi matnlar juftligi**

**Matnlar va bog‘liqliklar**

| O‘qishdan ko‘zlangan maqsad | Qiyin matnlar va savollar | O‘rtacha qiyinlikdagi matnlar va savollar | Oson matnlar va savollar |
|---|---|---|---|
| Badiiy | LitD1 (11) | LitM1 (16) | LitE1 (21) |
| | LitD2 (16) | LitM2 (21) | LitE2 (11) |
| | LitD3 (21) | LitM3 (11) | LitE3 (16) |
| Axborot | InfD1 (11) | InfM1 (16) | InfE1 (21) |
| | InfD2 (16) | InfM2 (21) | InfE2 (11) |
| | InfD3 (21) | InfM3 (11) | InfE3 (16) |

Barcha 18 ta baholash daftarlari quyidagi tartibda ikkita murakkablik darajasiga ajratiladi:

- Ikkita qiyin matndan yoki bitta o‘rtacha va bitta qiyin matndan iborat murakkabroq baholash daftarlari (9);
- Ikkita oson matn yoki bitta oson va bitta o‘rtacha murakkablikdagi matndan iborat oson baholash daftarlari (9).

4-jadvalda 1-9 gacha qiyin baholash daftarlari va 10-18 gacha oson baholash daftarlaridan iborat 18 ta baholash daftariga kiritilgan matnlar keltirilgan.

**4-jadval: Baholash daftarlariga belgilangan matnlar**

| Baholash daftarlari | | 1-qism | 2-qism |
|---|---|---|---|
| Nisbatan qiyin baholash daftarlari | 1-baholash daftari | InfM1 (16) | LitD1 (11) |
| | 2-baholash daftari | LitD3 (21) | InfD2 (16) |
| | 3-baholash daftari | LitM1 (16) | InfD1 (11) |
| | 4-baholash daftari | InfM2 (21) | LitD2 (16) |
| | 5-baholash daftari | LitD1 (11) | InfD3 (21) |
| | 6-baholash daftari | LitM2 (21) | InfD2 (16) |
| | 7-baholash daftari | InfM3 (11) | LitD3 (21) |
| | 8-baholash daftari | InfD1 (11) | LitD2 (16) |
| | 9-baholash daftari | LitM3 (11) | InfD3 (21) |
| Uncha qiyin bo'lmagan baholash daftarlari | 10-baholash daftari | LitE1 (21) | InfM1 (16) |
| | 11-baholash daftari | InfE2 (11) | LitM2 (21) |
| | 12-baholash daftari | InfE1 (21) | LitE3 (16) |
| | 13-baholash daftari | LitE2 (11) | InfM2 (21) |
| | 14-baholash daftari | InfE3 (16) | LitM3 (11) |
| | 15-baholash daftari | LitE1 (21) | InfE2 (11) |
| | 16-baholash daftari | LitE3 (16) | InfM3 (11) |
| | 17-baholash daftari | InfE1 (21) | LitM1 (16) |
| | 18-baholash daftari | LitE2 (11) | InfE3 (16) |

5-jadvalda ham har bir baholash daftariga kiritilgan matnlar ko'rsatilgan. Jadvalda mavjud 12 ta trend matnlar qaysi baholash daftariga taalluqliligi va PIRLS 2021 tadqiqotida yangi tuziladigan matnlar qayerga joylashtirilishi ko'rsatilgan.

**5-jadval: Trend va yangi matnlardan iborat baholash daftarlari**

| Baholash daftarlari | | 1-qism | 2-qism |
|---|---|---|---|
| Nisbatan qiyin baholash daftarlari | 1-baholash daftari | Biz uchishni qanday o'rgandik? (16) | Yaltiroq Somon (06) |
| | 2-baholash daftari | Yangi LitD3 matni (21) | Islandiya otlari (16) |
| | 3-baholash daftari | Pemba Sherpa (16) | Asal qayerda? (11) |
| | 4-baholash daftari | Yangi InfM2 matni (21) | Oliver va griffin (16) |
| | 5-baholash daftari | Yalqtiroq Somon (06) | Yangi InfD3 matni (21) |
| | 6-baholash daftari | Yangi LitM2 matni (21) | Islandiya otlari (16) |
| | 7-baholash daftari | Akulalar (06) | Yangi LitD3 matni (21) |
| | 8-baholash daftari | Asal qayerda? (11) | Oliver va griffin (16) |
| | 9-baholash daftari | Bo'sh gultuvak (11) | Yangi InfD3 matni (21) |
| Uncha qiyin bo'lmagan baholash daftarlari | 10-baholash daftari | Yangi InfE1 matni (21) | Biz uchishni qanday o'rgandik? (16) |
| | 11-baholash daftari | Eshitmaydigan qutb ayig'ini o'rgatish (11) | Yangi LitM2 matni (21) |
| | 12-baholash daftari | Yangi InfE1 matni (21) | Kutubxona sichqoni (16) |
| | 13-baholash daftari | Otamning 10 yoshligidagi yoz fasli (11) | Yangi InfM2 matni (21) |
| | 14-baholash daftari | Och o'simlik (16) | Bo'sh gultuvak (11) |
| | 15-baholash daftari | Yangi InfE1 matni (21) | Eshitmaydigan qutb ayig'ini o'rgatish (11) |
| | 16-baholash daftari | Kutubxona sichqoni (16) | Akulalar (06) |
| | 17-baholash daftari | Yangi InfE1 matni (21) | Pemba Sherpa (16) |
| | 18-baholash daftari | Otamning 10 yoshligidagi yoz fasli (11) | Och o'simlik (16) |

## Mamlakatlarda baholash daftarlarining taqsimlanishi

Har bir ishtirokchi mamlakatda o'quvchilarga beriladigan savol-topshiriqlarning bir xilligini ta'minlash maqsadida barcha 18 ta matn har bir mamlakat uchun taqsimlab chiqilgan, ammo o'quvchi kontingentining o'rtacha o'qish qobiliyatidan kelib chiqib, murakkab va oson baholash daftarlari turli proportsiyada taqsimlab chiqilgan. Bu esa o'quvchilar tomonidan avvalgi PIRLS tadqiqotda ko'rsatgan o'zlashtirish ko'rsatkichlari yoki ilk marotaba ishtirok etayotgan mamlakatlar uchun tuzilgan tajriba sinov testlari asosida hisoblab chiqiladi. Har bir ishtirokchi mamlakatdagi o'quvchi qobiliyati va savollarning murakkabligi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash maqsadida yuqori ko'rsatkich ko'rsatgan mamlakatlar mos ravishda murakkabroq baholash daftarlarini ishlab ko'radi, o'z navbatida, pastroq ko'rsatkich ko'rsatgan mamlakatlar esa osonroq baholash daftarlarini ishlab ko'radi.

6-jadvalda yuqori, o'rtacha va past o'zlashtirish ko'rsatkichiga ega mamlakatlar uchun belgilangan alohida baholash daftari ko'rsatilgan. PIRLS o'zlashtirish shkalasida 550 dan yuqori ball to'plagan, masalan, umumiy savollarning 70 foizini yecha olgan mamlakatlar, o'rtacha yuqori samaradorlikka ega mamlakatlarga tasodifiy ravishda murakkabroq baholash daftarlari beriladi, pastroq ball to'plagan, masalan, 70 foiz ko'rsatkichli umumiy savollarning 30 foizini yecha olgan mamlakatlarga esa osonroq baholash daftarlari beriladi. 450 dan 550 gacha ball to'plagan mamlakatlarga murakkab va oson baholash

daftarlari, PIRLS o‘zlashtirish shkalasida 450 dan past ball to‘plagan mamlakatlarga esa 30 foiz oson va 70 foiz murakkab baholash daftarlari beriladi.

**6-jadval: Yuqori, o‘rtacha va past o‘zlashtirish ko‘rsatkichini ko‘rsatgan mamlakatlar uchun tuzilgan baholash daftarlari**




## ePIRLS tadqiqotini raqamli PIRLS tadqiqotiga muvofiqlashtirish

PIRLS 2021 boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining onlayn axborot beruvchi matnni o‘qib tushunish darajasini baholash tadqiqoti kompyuter yoki planshet yordamida beriladigan besh dona topshiriqdan iborat. O‘qituvchi-instruktor yordami bilan o‘quvchilar berilgan savollarga javob beradilar, munosabatlarni tushunitiradilar va ma’lumotlarni talqin qilish va umumlashtirish uchun veb sahifalar bilan ishlaydilar. Topshiriqlarning uchtasi ePIRLS 2016 tadqiqotidan olinib, baholash yo‘nalishlari uchun tuzilgan bo‘lib, qolgan ikkitasi esa PIRLS 2021 tadqiqotida beriladi. Kelgusida o‘tkazilishi kutilayotgan PIRLS va ePIRLS dasturlarini yanada muvofiqlashtirish maqsadida raqamli PIRLS tadqiqoti o‘tkaziladigan mamlakatlarda ePIRLS savollari baholash daftarlaridan takroriy foydalanish uchun kiritilgan bo‘lib, mazkur “aralash” baholash daftarlari bitta raqamli PIRLS axborot beruvchi matndan va bitta ePIRLS matnidan iborat. Bu degani, raqamli PIRLS tadqiqotida qatnashayotgan o‘quvchilarga uch xil baholash daftarlaridan bittasi berilishi mumkin, ya’ni odatdagi ikkita raqamli PIRLS matnli baholash daftari, ikkita ePIRLS matnli ePIRLS baholash daftari yoki bitta raqamli PIRLS axborot beruvchi matnli va ePIRLS matnli aralash baholash daftari berilishi mumkin.

## Raqamli PIRLS tadqiqoti topshiriqlaridan takroriy foydalanish sxemasi

Raqamli PIRLS tadqiqoti uchun mo‘ljallangan asosiy savollardan takroriy foydalanish sxemasi an’anaviy qog‘oz shaklidagi PIRLS tadqiqotiga muvofiqlashtirish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, an’anaviy qog‘oz shaklidagi PIRLS tadqiqotida bo‘lgani kabi bir xildagi 18 ta baholash daftariga bir xil 18 ta matnlar kiritilgan. An’anaviy qog‘oz shaklidagi PIRLS tadqiqotida mazkur 18 ta baholash daftarlari mamlakatda belgilangan tartiblarga mos murakkab va oson baholash daftarlari teng miqdorda bo‘lishini ta’minlaydigan tizimli, avvaldan kelishilmagan baholash jarayonidan foydalanib, saralab olingan sinf o‘quvchilari orasida taqsimlanadi. Raqamli PIRLS tadqiqoti o‘sha 18 ta doimiy baholash daftari yordamida o‘tkaziladigan baholash jarayoniga o‘xshash tarzda o‘tkaziladi, ammo unda ePIRLS va aralash baholash daftarlari ham kiritiladi.

2016-yilda qo‘llanilgan ePIRLS baholash tadqiqotidan takroran foydalanish sxemasiga o‘xshab, beshta ePIRLS topshiriqlarining har biri boshqalari bilan qo‘shiladi va har bir topshiriq (yoki savol) baholash daftarining birinchi va ikkinchi o‘rnidan joy oladi. Bu esa 20 dona alohida onlayn RIRLS baholash daftari yaratilishi ta’minlaydi. Aralash baholash daftarida to‘qqiz dona raqamli PIRLS axborot beruvchi matnlarning har biri beshta ePIRLS topshiriqlariga qo‘shib yuboriladi va natijada 4 dona aralash baholash daftari hosil bo‘ladi. Ularning har birida raqamli PIRLS matnlaridan avval ePIRLS topshiriqlari keladi.

